



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

YANGI O'ZBEKISTON, YANGI ARMIYA

Har kuning bayramdir, har kuning to'ydir,
Har maysa tebranib, aytar shukrona.
Jonim xizmatiga hozirlab qo'ydim,
Mustaqil Vatanga bo'lsin to'yona.

Olim-u fuzalo, ta'lim-u irfon,
Adolat, jasorat, ishonch, tarbiya.
Bari yangilangan Vatanga quvonch,
Yangi O'zbekiston, yangi armiya.

Qurol tutgan askar, yo'l ochgan askar,
Goh yerda, goh ko'kda nur sochgan askar,
Quruvchi, uchuvchi, har jabhada shay,
Bu yurtida har go'dak ko'z ochgan askar.

Sarboni boshida, humo boshida,
Yurtga sadoqat bor tamal toshida.
Shukrona aytmasdan bo'lurmi, ayting,
Mingyillik orzuning turib qoshida.

Dorulamon kunlar ostonasidan,
Olis kelajakka qaragan odam.
Gullagan bog' ko'rar, jannatni nasim,
Ko'rgaydir bor dunyo boshida Vatan.

Bir askar bolangman, senda jon-tanim,
Senda ko'z ochganim, dovruc sochganim.
Himoyangga keldim, mudofaangga keldim,
Senga jonim fido, aziz Vatanim!

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar",
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 10-IYUL
№28 (3194)



KONSTITUTSIYAVIY BURCH VA O‘ZBEK ARMIYASINING VATANPARVARLIK FENOMENI



Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida tub transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Dunyoning turli nuqtalarida geosiyosiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi, mahalliy va mintaqaviy nizolar, shuningdek gibril tahdidlar, kiberhujumlar va axborot urushlarining kuchayishi har bir davlatdan milliy xavfsizlik hamda mudofaa tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

DUNYODAGI BEQARORLIK DAVRIDA ZAMON TALABI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2026-yil yanvardagi Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida jahondagi ushbu tahlikali tendensiyalarga alohida to‘xtalib, quyidagilarni ta’kidlagan edi:

“Hozirgi vaqtda dunyoning siyosiy va harbiy xaritasida qanday shiddatli o‘zgarishlar yuz berayotganini barchamiz ko‘rib, anglab turibmiz.

Turli mintaqalarda geosiyosiy vaziyat tobora murakkablashib, ziddiyat va qonli to‘qnashuvlar kuchaymoqda. Zamonaviy texnologiyalar, yangi avlod qurol-yarog‘lari paydo bo‘lmoqda, jangovar harakatlar olib borishning strategiya va taktikasi yanada takomillashmoqda.

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda biz kelgusida jang va boshqaruv usullarini zamon talablari asosida yangilaymiz, yuqori malakali harbiy kadrlarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratamiz”.

Jahondagi ushbu murakkab harbiy-siyosiy vaziyat fonida davlatimiz rahbari milliy armiyaning jangovar shayligi, uning texnologik ustunligi va eng muhimi unga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash borasida mas‘ullar zimmasiga qator vazifalar qo‘ydi. Shuningdek, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika, jumladan sun‘iy intellekt asosida robotlashtirilgan majmualar bilan ta‘minlash hamda “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!” tamoyilini qaror toptirish tinchlikni saqlashning mustahkam poydevori ekani qayd etildi.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Chunki jang maydonida g‘alabani shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat‘iyati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda mardona fazilatlarini ta‘minlaydi.

MUDOFAA VA XAVFSIZLIKNING HUQUQIY POYDEVORI

Mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar

doirasida Bosh qomusimiz yangi tahrirda qabul qilindi. Unda mudofaa, xavfsizlik va Qurolli Kuchlarning maqomi sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Ilgari harbiy sohaga oid normalar umumiyroq xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, yangi Bosh qonunda ular davlat suverenitetining mustahkam huquqiy kafolati sifatida muhrlandi.

Konstitutsiyaning XXVII bobi “Mudofaa va xavfsizlik” deb nomlangan bo‘lib, Qurolli Kuchlarimizning maqomi, vazifalari va faoliyatining qonuniy asoslarini aniq va lo‘nda belgilab beradi. Xususan, 152-moddada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida tuzilishi qat‘iy qayd etilgan. Mazkur moddaga ko‘ra, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

153-moddada esa O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta‘minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega ekani asoslangan. Eng muhimi, Konstitutsiyamizning 64-moddasida harbiy xizmatni o‘tash yurtimizning har bir fuqarosi uchun muqaddas konstitutsiyaviy burch ekani mustahkamlab qo‘yilgan.

GLOBAL INQIROZLAR VA O‘ZBEKISTON FENOMENI

Jahon amaliyotiga nazar tashlasak, insoniyat sivilizatsiyasi va milliy davlatchilik rivojida armiya doim barqarorlik va taraqqiyotning bosh kafolati bo‘lib kelgan. Biroq bugungi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida, xususan ayrim G‘arb mamlakatlarida harbiy xizmatga chaqiruv, safarbarlik va professional armiyani butlash tizimida jiddiy inqirozlar kuzatilmog‘da.

Xususan, Germaniya Federal Mudofaa vazirligi (*Bundeswehr*) va rasmiy tahliliy manbalarning ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda majburiy harbiy xizmat to‘xtatilganidan so‘ng Bundesver saffarini kontrakt bo‘yicha

professional harbiylar bilan to‘ldirish va eng asosiysi zarur holatlar uchun jangovar safarbarlik rezerv bazasini (*rezervchilar fondini*) shakllantirishda katta tanqislik yuzaga keldi. Yoshlar orasida harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishning keskin pasayib ketgani sababli hozirda Germaniya hukumati va mudofaa tuzilmalari milliy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida majburiy harbiy majburiyatning yangi, zamonaviylashtirilgan shakllarini qayta tiklash masalasini eng yuqori siyosiy darajada muhokama qilmoqda. Xuddi shunday holat dunyoning bir necha davlatlarida ham kuzatilib, kadrlar bazasining yetishmasligi jiddiy muammoga aylangan.

O‘zbekistonda esa vaziyat mutlaqo boshqacha, bizda o‘ziga xos “demografik va vatanparvarlik fenomeni” mavjud. **Xalqimizning asriy qadriyatlarini, ajdodlarimizdan meros qolgan mardlik tuyg‘usi va davlatimiz olib borayotgan oqilona siyosat natijasida bugun yurtimizda bitta chaqiriluvchi o‘rniga bir nechta nomzod to‘g‘ri kelmoqda.** Bu holat O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga bilimi yuksak, intellektual salohiyati baland, jismonan baquvvat va ma‘nan yetuk yoshlarni saralab olish imkoniyatini bermog‘da.

Bu fikrning amaliy isbotini zamonaviy axborot makonida va ijtimoiy tarmoqlarda ham yaqqol ko‘rish mumkin. Xususan, harbiy mavzu keng yoritilayotgan, soha masalalari muhokama qilinayotgan, qisqa vaqtda katta auditoriyani qamrab olgan **“Qarorgoh” podkastining yosh kuzatuvchilari tomonidan qoldirilayotgan samimiy izohlar buning yaqqol dalilidir:**

“Armiyaga ketish uchun yana qanday hujjat topshirishim kerak?”

“Tanlovdan adolatli o‘tdim, lekin joy to‘lib qolgani uchun navbatga qo‘yishdi, tezroq bormoqchiman!”

“Vatan oldidagi burchimni o‘tash uchun hamma talablarga tayyorman, nega meni olishmayapti?”

Bu kabi jonli murojaatlar o‘zbek yoshlari o‘rtasida harbiy xizmatga bo‘lgan ishtiyoq qanchalik balandligini, yigitlarimiz

armiyaga borish uchun chin dildan, intiqlik bilan navbatda turganini ko‘rsatuvchi ijobiy va faxrlanarli ko‘rsatkichdir.

HARBIY TIZIMDAGI KONSEPTUAL BURILISH

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining tegishli farmon va qarorlari, xususan sohaga oid konseptual dasturlar hamda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan tizimli o‘zgartirishlar armiyamizni tubdan transformatsiya qilishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi. **Mazkur tarixiy hujjatlar harbiy xizmatni mamlakat taraqqiyotining qudratli drayveriga aylantirish, sohaning mazmun-mohiyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.** Xususan, Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi (*SCHR*) xizmat tizimining takomillashtirilishi yoshlarga juda katta qulaylik yaratdi. Bu tizim yigitlarimizga bir vaqtning o‘zida ham iqtisodiyot, ishlab chiqarish yoki ilm-fan sohasidagi faoliyatini uzmaslik, ham bir oylik muddatda harbiy ta‘lim va ko‘nikmalarni egallab, Vatan oldidagi konstitutsiyaviy burchini to‘laqonli bajarish imkoniyatini berdi.

“BITTA ASKAR – BITTA KASB” TAMOIILI

Ilgari muddatli harbiy xizmat deganda ko‘pchilikning ko‘z oldiga faqat jangovar va jismoniy mashqlar kelgan bo‘lsa, bugun bu tushuncha mutlaqo yangi qiyofa kasb etdi. **Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan yangi tizimga ko‘ra, bir yillik xizmat davrida yosh yigitlar Vatan himoyasi bilan bir vaqtda, hayotda zarur bo‘ladigan professional kasblardan birini egallashi shart qilib qo‘yildi.**

Buning uchun harbiy qismlarda maxsus 3-6 oylik o‘quv kurslari tashkil etildi. Dastur yakunida askarlarga beriladigan malaka sertifikatini xizmatdan so‘ng mehnat bozoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish va munosib ish topish kafolatini beruvchi muhim hujjat vazifasini o‘tamoqda.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INTELLEKTUAL ARMIYA

Biz ayni davrda jismoniy kuch bilan birga intellekt, yuqori

texnologiyalar va algoritmlar to'qnashayotgan asrda yashayapmiz. Shuni anglagan holda Mudofaa vazirligi tizimida yoshlarni raqamli texnologiyalarga o'qitish bo'yicha jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, har yili Mudofaa vazirligi qo'shinlarida 5 ming nafar eng iqtidorli askar saralab olinadi. Ular "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" umummilliy dasturlari doirasida bepul va chuqurlashtirilgan ta'lim oladi.

Buning natijasida yigitlar muddatli harbiy xizmatni tugatib, uyiga zamonaviy IT-mutaxassis, dasturchi va ma'lumotlar tahlilchisi bo'lib qaytmoqda. Bu esa armiyaning mamlakat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotiga katta hissa qo'shishga kirishganini anglatadi, albatta.

TA'LIM VA IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASH

Mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash davlat siyosatining bosh maqsadiga aylanganini muddatli harbiy xizmat jarayonida ham kuzatish mumkin. Bu borada harbiy xizmatchilarga yaratilgan imtiyozlar tizimi dunyo

tajribasida kamdan kam kuzatiladigan noyob modelga aylandi.

Bugun askar yigit xizmat vazifasini bajarish bilan bir vaqtda, oliy o'quv yurtiga kirish uchun imtihon topshirishi mumkin. Testdan muvaffaqiyatli o'tgan yigitlar xizmati yakunlanishi bilan to'g'ridan to'g'ri talabalar safiga qabul qilinadi.

Xorijiy tillarni o'rganish va xalqaro sertifikatlar (IELTS, TOEFL va h.k.) olish bilan bog'liq xarajatlar davlat tomonidan to'liq qoplab beriladi.

Kontrakt asosida o'qishga kirgan yosh harbiylarga foizsiz ta'lim kreditlari ajratilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur tizimli imtiyozlar to'plami Yangi O'zbekiston armiyasi yoshlarining kelajagi va intellektual salohiyatiga tikilgan eng yirik, kafolatlangan strategik investitsiyadir.

IRODA MASHQLARI MAYDONI

Yuksak psixologik va intellektual tayyorgarlikni talab etayotgan zamonaviy tahdidlar Mudofaa vazirligi tizimida yangi dunyoqarashga ega bo'lgan

harbiylarni shakllantirish masalasini o'rta qo'ydi. Bu borada davlat rahbarining alohida topshirig'i ijrosi doirasida **mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'limi hamda tegishli mutaxassislar tomonidan "G'oyaviy jangchi" konsepsiyasi hamda "Kuchli ma'naviyatli harbiy xizmatchi" modeli ishlab chiqildi.** Mazkur tizimning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida ilk bor "Mafkuraviy poligon" yaratildi. Askar an'anaviy harbiy poligonda quroldan foydalanishni o'rgansa, mafkuraviy poligonda u o'z ongi, hissiyoti va irodasini boshqarishni mashq qiladi.

Ushbu innovatsion maydon o'zaro bog'liq uchta asosiy moduldan tashkil topgan:

Tarixiy modul: milliy meros va ma'rifatparvar ajdodlar hayoti misolida kursantlarda milliy g'urur va yengilmas jangovar ruhni shakllantiradi.

Vatanparvarlik moduli: bo'lajak ofitserlarda Vatanga fidoyilik,

mas'uliyat va harbiy burchga vijdonan yondashish tuyg'usini mustahkamlaydi.

Axborot-tahliliy modul: global tarmoqdagi dezinformatsiya va mafkuraviy xurujlarga qarshi mustahkam immunitet hosil qiladi, mediasavodxonlik va strategik fikrlashni rivojlantiradi.

Ayni vaqtda "Mafkuraviy poligon" platformasi har qanday ma'naviy tahdid va stress holatlarida to'g'ri qaror qabul qila oladigan, ma'naviy barqaror yangi avlod harbiy kadrlarini kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

MUQADDAS BURCH VA MILLIY G'OYA

Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilish ajdodlar jasoratiga sodiqlik, oila, el-yurt va ona yurt tinchligini asrash vazifasini o'zida mujassam etib, "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" degan ulug'vor g'oya asosida hayotiy voqeikka aylanib, har bir harbiy xizmatchi, har bir fuqaroning qalbiga kirib borayotir. **Bugun milliy armiyamiz – jamiyat ma'naviyatini yuksaltiruvchi, yoshlar qalbida milliy g'urur, intizom va yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantiruvchi sharaf maktabiga aylangan.**

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi ostonasida milliy armiyamizning yuksak salohiyati, zamonaviy qiyofasi va yoshlarimizning shijoatli intilishi bir haqiqatni anglatadi: O'zbekistonning tinchligi, barqarorligi va yorug' kelajagi ishonchli qo'llardadir.

Olimjon O'SAROV,
mudofaa vazirining
vatanparvarlik targ'iboti,
ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda
yoshlar masalalari bo'yicha
maslahatchisi



"Eng ulug', eng aziz" ko'rik-tanloviga

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ — YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM POYDEVORI

*"Bu yorug' olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda ona degan nom".*

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning ushbu satrlarida xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot falsafasi, milliy tafakkuri va Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati mujassam. Zero inson uchun Vatan ona kabi yagona va betakrordir. U faqat tug'ilib o'sgan zamingina emas, balki millatning tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari, milliy g'ururi va kelajak orzu-intilishlarini o'zida mujassam etgan muqaddas maskandir. Shu bois yurt ravnaqi yo'lida barpo etilayotgan har bir inshoot, ekilgan har bir daraxt, himoya qilinayotgan har bir qarich muqaddas tuproq Vatanga muhabbat va sadoqatning ifodasidir.

Ana shu muqaddas qadriyatning eng mustahkam kafolati esa mustaqillikdir. Chunki mustaqillik har qanday xalq uchun nafaqat siyosiy-huquqiy maqom, balki uning milliy o'zligi, erkin taraqqiyoti va farovon kelajagini belgilaydigan eng oliy qadriyatdir. Faqat mustaqil davlatgina o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil belgilaydi, milliy manfaatlarini himoya qiladi, buyuk ajdodlaridan meros bo'lib kelgan boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosga tayangan holda kelajak avlod uchun ozod, obod va qudratli Vatanni barpo etadi.

Bu shunchaki gap emas, balki uzoq yillar davomida yuritilgan mustamlakachilik siyosatining asl maqsadiga guvoh bo'lgan, uni ko'rgan va ko'pchilik qatori Vatan mustaqilligini intiqlik bilan kutgan xalqimizning xulosasidir.

Mana o'ttiz besh yildirki, O'zbekistonimiz o'zining milliy suverenitetini mustahkamlab, davlatchiligini takomillashtirdi, xalqimizning tinch va farovon hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratdi. Yurtimizda adolatli jamiyat qurish, inson manfaatlarini va qadrini ulug'lash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida yurtimiz hayotida ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar va

tarixiy yangilanishlar ana shu haqiqatning yana bir yorqin tasdig'idir. Bugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi tub o'zgarishlar, shaharsozlik loyihalari mamlakat taraqqiyotini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan ilgari surilgan **"Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!"** degan bosh g'oya ham xalqimizning ezgu intilishlari va umummilliy maqsadlarini o'zida mujassam etgan hayotiy dasturdir. Zero Vatan taraqqiyoti faqat davlatning sa'y-harakati bilan emas, balki millatning birligi, xalqning hamjihatligi va har bir fuqaroning yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan ta'minlanadi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot, har bir bunyodkorlik loyihasi va har bir ezgu tashabbus aynan shu yuksak g'oyaning amaliy ifodasi sifatida hayotga tatbiq etilmoqda.

Haqiqatan ham bugun mamlakatimizning qaysi hududiga bormang, ulkan bunyodkorlik ishlarining guvohi bo'lasiz. Yangi shaharlar, zamonaviy mahallalar, ko'p qavatli uy-joylar, maktablar, bog'chalar, shifoxonalar, madaniyat saroylari,

sport majmualari, avtomobil yo'llari, temiryo'llar, ko'priklar, sanoat zonalar va ishlab chiqarish korxonalar barpo etilmoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat shaharlar qiyofasini, balki odamlarning hayot sifati va ertangi kunga bo'lgan ishonchini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Ayniqsa, **mamlakatimiz tarixidagi eng yirik shaharsozlik loyihalaridan biri hisoblangan Yangi Toshkent shahri qurilishi Yangi O'zbekistonning bunyodkorlik siyosati va uzoqni ko'zlagan taraqqiyot strategiyasining yorqin ifodasi bo'ldi.** Yangi Toshkentda keng yashil hududlar, zamonaviy turar-joylar, ilmiy-innovatsion markazlar, universitetlar, tibbiyot markazlari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etilishi mamlakatimizning kelgusi o'n yilliklardagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shuningdek, u yerda shaharsozlik siyosati ekologik barqarorlik bilan uyg'un holda olib borilayotgani ham e'tiborga loyiq. Zero bugungi

kunda iqlim o'zgarishlari, cho'llanish, havo haroratining belgilangan me'yordan ortishi va suv resurslarining qisqarib borayotgani butun insoniyat oldida turgan dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda tabiatni muhofaza qilish, yashil hududlarni kengaytirish va ekologik madaniyatni yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi aynan ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur loyiha mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, shahar va qishloqlarda yashil hududlar ulushini ko'paytirish, iqlim o'zgarishining oqibatlarini yumshatish hamda aholi uchun sog'lom ekologik muhit yaratishga qaratilgan keng ko'lamli umumxalq harakatiga aylandi.

Loyiha doirasida yo'l yoqalari, qarovsiz yotgan yerlarga har yili millionlab mevali va manzarali, daraxt ko'chatlari ekilib, ihotazorlar, yangi bog'lar yaratilib,



“yashil belbogʻ”lar va dam olish zonalari tashkil etilmoqda. Bu ishlar shaharlar havosini tozalash, chang boʻronlarini kamaytirish, bioxilmaxillikni saqlash va aholi uchun qulay ekologik muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Eʼtiborlisi, **ushbu umummilliy harakatda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda harbiy qismlar, taʼlim muassasalari, mahallalar, korxona va tashkilotlar hamda yoshlar ham faol ishtirok etmoqda.** Bu esa “Yashil makon” umummilliy loyihasini oddiy davlat dasturidan xalq harakatiga aylantirdi. Bugun daraxt ekish xalqimiz uchun nafaqat ekologik burch, balki Vatanga muhabbat, kelajak avlodlar oldidagi masʼuliyat va yurt obodligiga daxldorlikning amaliy koʻrinishi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Bugun Yangi Toshkentdan tortib eng chekka qishloqlargacha yashil hududlarni kengaytirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, tomchilatib sugʻorish tizimlaridan foydalanish, yangi istirohat bogʻlari va ekologik maskanlarni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” tamoyilining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu esa ekologik barqarorlikni taʼminlash bilan birga aholi salomatligini mustahkamlash, turizm salohiyatini oshirish va shaharsozlik madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Biroq **har qanday taraqqiyotning mustahkam kafolati tinchlik va xavfsizlikdir. Shu bois mamlakatimizda milliy armiyamizni isloh qilish, uning jangovar salohiyatini oshirish va zamonaviy xavf-xatarlarga munosib**

javob bera oladigan Qurolli Kuchlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi.

Jumladan, harbiy taʼlim tizimini tubdan takomillashtirish, ofitser kadrlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy harbiy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek harbiy xizmatchilar hamda ularning oila aʼzolarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar milliy armiyaning nufuzini yanada oshirmoqda. **Bugun harbiy xizmat nafaqat sharaflı burch, balki yuksak bilim, qatʼiy intizom, zamonaviy dunyoqarash va yuksak masʼuliyatni talab etadigan kasb sifatida eʼtirof etilmoqda.**

Zamonaviy qurolli kurash xususiyati keskin oʻzgarib borayotgan bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda harbiy xizmatchilardan faqat jismoniy tayyorgarlik emas, balki axborot texnologiyalari, sunʼiy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamli boshqaruv tizimlari va yuqori aniqlikdagi qurollardan foydalanish boʻyicha chuqur bilim ham talab etilmoqda. Shu bois harbiy taʼlim muassasalarida oʻquv dasturlari muntazam yangilanib, zamonaviy oʻquv poligonlari, simulyatorlar va elektron taʼlim platformalaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa kadrlarning kasbiy mahoratini xalqaro talablar darajasiga koʻtarishga xizmat qilmoqda.

Armiya va xalq birligi ham mamlakatimiz mudofaa siyosatining ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda harbiy qismlarning aholi, taʼlim muassasalari bilan hamkorligi mutlaqo yangi bosqichga koʻtarildi. “Askar oilasi harbiy

qismda”, “Vatan tayanchi”, “Jasorat maktablari”, “Harbiy-vatanparvarlik oyligi” kabi loyihalar yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy gʻurur, yurt taqdiriga daxldorlik va harbiy kasbga hurmat tuygʻularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun harbiy xizmatchilar nafaqat mamlakat sarhadlari daxlsizligini taʼminlayotgan jasur himoyachilar, balki maʼnaviy-maʼrifiy hayotda ham faol ishtirok etayotgan, aholi oʻrtasida vatanparvarlik gʻoyalarini targʻib qilayotgan, yosh avlod uchun ibrat maktabiga aylangan fidoyi insonlardir. Bu esa armiya va xalqning mushtarak maqsad yoʻlida birlashganini yana bir bor namoyon etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan milliy armiya taraqqiyoti oʻzaro chambarchas bogʻliq. Chunki tinchlik boʻlgan joydagina yangi shaharlar barpo etiladi, zamonaviy korxonalar ishga tushadi, ilm-fan va iqtisodiyot rivojlanadi, inson qadri ulugʻlanadi.

Shu maʼnoda milliy armiyamiz nafaqat mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligining ishonchli qalqoni, balki Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining mustahkam tayanchi hisoblanadi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan

ilgari surilgan “Yagona Vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu gʻoya bugun hayotimizning barcha jabhalarida oʻzining amaliy ifodasini topmoqda. Yangi Toshkent shahri qurilishi, mamlakatimiz boʻylab amalga oshirilayotgan keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, milliy armiyamizda kechayotgan tub islohotlar va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar yagona maqsad – inson qadriini yuksaltirish, tinch va farovon hayotni taʼminlash hamda kelajak avlodlarga qudratli, obod va barqaror Oʻzbekistonni meros qoldirishga xizmat qilmoqda.

Zero tarix har bir xalqni, avvalo, bunyodkorliklari yoki iqtisodiy koʻrsatkichlari bilan emas, balki Vatanga boʻlgan muhabbati, birligi, fidokorona mehnati va istiqlolni asrab-avaylashga boʻlgan qatʼiy irodasi bilan baholaydi.

Ana shunday yuksak fazilatlar xalqimiz qalbida mustahkam qaror topgan ekan, Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻli yanada barqaror, istiqboli esa yanada porloq boʻlishi shubhasiz.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**



“Mard o‘g‘lon” sohibi



Mardlik yigitlarning eng sara fazilati, ziynati. U shunday fazilatki, inson siyratiga ham suvratiga ham husn bo‘la oladi. “Vatan tarixini nima bezab turadi, deb so‘rasalar, hech ikkilanmay, shijoat-u jasorat, ma‘rifat-u adolat, sadoqat-u himoyat va shu bilan birga er yigitlarning ko‘rki bo‘lgan mardlik degim keladi”, degan edi bir suhbatda taniqli yozuvchilardan biri. Chunki mardlik – bu burchni his qilish, mas‘uliyatni yelkaga olish va eng og‘ir pallada ham ortga chekinmaslik. Shuning uchun ham u doim qadrlangan va qadrlanib kelmoqda.

Sahifamiz qahramoni katta leytenant Doniyor Husanov ham ana shunday fazilati va bilimi, zakovati tufayli qadr topgan, martabaga erishgan harbiy xizmatchilarimizdan biri.

Shunday insonlar borki, ularning hayoti so‘z bilan emas, amal bilan yozilgan dostoniga o‘xshaydi. Qahramonimiz ham mazkur e‘tirofga sazovor o‘g‘lonlardan. Zero yosh bo‘lishiga qaramay, uning hayot yo‘li oddiy emas, balki mardlik, jasorat va yuksak mas‘uliyat bilan sug‘orilgan sharaflı yo‘ldir. Shu bois ham uning Vatan oldidagi fidokorona xizmati yuksak baholanib, joriy yilning 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimizning farmoniga binoan, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Quyida biz u bilan bo‘lgan suhbatni e‘tiboringizga havola etamiz.

SINOVLARDA TOBLANGAN BOLALIK

– Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Chinobod qishlog‘ida tug‘ilganman, – deydi qahramonimiz. – Bolaligim taqdirning erta sinovlari bilan yuzma-yuz keldi. Chunki 2003-yili dadam vafot etganida, men atigi olti yosh, ukam esa ikki yosh edi. Bu yo‘qotish nafaqat oilamizga, balki bolaligimga ham o‘z muhrini bosdi...

Oilani boqish, farzandlar kelajagini ta‘minlash uchun onam chet elga ishlashga ketishga majbur bo‘ldi. Men va ukam Diyorbek bobom hamda buvimning qaramog‘ida qoldik. Biz tog‘amizning farzandlari bilan birga katta bo‘ldik. Bir xonadon, bir dasturxon, bir tarbiya muhiti – bu bizga nafaqat yaqinlik, balki o‘zaro suvanch va hamjihatlikni o‘rgatdi. Yana bobomning hayotiy tajribasi, buvimning mehribonligi qalbimizda iroda, bardosh va mehr-oqibatni mustahkamladi.

U sharaflı yo‘l boshida

O‘ylab qarasam, bolaligimda boshimdan o‘tkazgan har bir qiyinchilik men uchun to‘siq emas, balki kuch manbai bo‘lib xizmat qilibdi. O‘sha muhitda men mardlikning haqiqiy ma‘nosini anglay boshladim: u baland gaplarda emas, balki sabrda, burchga sadoqatda va oilaga suvanch bo‘la olishda namoyon bo‘lar ekan.

“DADAM BILAN FAXRLANAMAN!”

– Dadam, marhum harbiy xizmatchi serjant Damir Shukurov bo‘ladi. U 2000-yili yurtimizning janubiy sarhadlariga suqulib kirgan jangarilarga qarshi bo‘lgan janglarda ishtirok etib, og‘ir jarohatlangan. Onamning aytishicha, ko‘p davolangan. Lekin natija bo‘lmagan. Dadamni tanigan-bilganlar doim uning samimiyligi, halolligi, xushmuomalaligini e‘tirof etishadi. Onam ham dadam haqida faqat yaxshi xotiralarini gapirib berardi.

Bu gaplar men uchun oddiy ta‘rif emas, bu men uchun o‘ziga xos ibrat maktabi bo‘ldi. Garchi dadamning bag‘rida ulg‘aymagan bo‘lsam-da, onamning hikoyalari, yaqinlarimizning ta‘riflari orqali uning siymosi qalbimda jonlanib, ravshanlashib bordi. Vaqt o‘tgani sayin angladimki, insonning haqiqiy umri yillar bilan emas, qoldirgan izi bilan o‘lchanar ekan. Otam qisqa umr ko‘rdi, ammo u qoldirgan iz mening hayot yo‘limni yoritib turadigan so‘nmas chiroqqa aylandi...

HARBIYLIKKA QADAM

– 2011-yil, 14 yoshimda Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga harbiy orkestr tarbiyalanuvchisi sifatida qabul qilinganman. Biz olti nafar edik. Oramizda xizmat burchini ado etish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari va mehribonlik uyida tarbiya topgan, qalbida harbiy kasbga mehri bor bolalar ham bor edi. Biz turli taqdir egalari edik, lekin bizni birlashtirgan bitta tuyg‘u bor edi – Vatanga xizmat qilish istagi.

Bilim yurti biz uchun shunchaki ta‘lim muassasasi emas, balki ikkinchi oilamiz edi. Biz ertalabdan kechgacha shu dargohda bo‘lib, intizom, tartib va mas‘uliyat muhitida kamol topdik. Yashashimiz, yeb-ichishimiz, tarbiyamiz bilim yurti zimmasida edi. Faqat umumta‘lim fanlarini o‘zlashtirish uchun Chirchiq shahridagi 24-sonli maktabga qatnardik.

Harbiy orkestrda men klarnet chalishni o‘rgandim. Tajribali ustozlardan saboq oldim. Maktabni tamomlab, Chirchiq ijtimoiy-iqtisodiyot kollejiga o‘qishga kirdim. Kollejni tamomlab, mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotida olti oylik haydovchilik kursida o‘qidim. Shundan so‘ng muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Aynan shu davrda men hayotimdagi eng muhim qarorni qabul qildim. Ya‘ni xizmatni kontrakt bo‘yicha davom ettirishga ahd qildim.

Bu qaror tasodifiy emas edi – u yillar davomida shakllangan orzuning ushalishi edi. Zero men harbiylikni shunchaki kasb emas, balki otamdan qolgan meros deb bilardim. U bolalikdan shakllangan mas‘uliyat, qalbimda o‘tib borgan burch tuyg‘usining ifodasi edi. 2019-yilda esa men bolalikdan orzu qilgan mana shu sharaflı yo‘lning yangi, mas‘uliyatli bosqichiga qadam qo‘ydim: kvota asosida Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o‘qishga kirdim!

G‘OYALAR IXTIROLARGA YO‘L OCHADI

– Oliy harbiy ta‘lim muassasasida o‘qish jarayonida texnikaga va kichik ixtirolar qilishga qiziqish paydo bo‘lgan. To‘g‘rirog‘i, menda avvaldan ixtirochilikka qiziqish bor edi, lekin o‘zimga ishonmaganmanmi, yoki ikkalanganmanmi uni yuzaga chiqarmaganman. 2022-yilda uchta kursant va bitta ofitser ustozimiz bilan hamkorlikda masofadan boshqariladigan mini tank loyihasini ishlab chiqdik. Bu shunchaki texnik ish emas edi – bu bizning bilimimiz, izlanishimiz va orzularimizning mujassami edi. Uni o‘sha yili 30-iyun – Yoshlar kunida “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida Prezidentimizga taqdim qildik. Bu loyiha davlatimiz rahbariga ham ma‘qul kelib, iliq fikrlar bildirdi va loyiha uchun kerakli mablag‘ ham ajratdi. Davlat rahbarining ishonchi bizga o‘zgacha ruh bag‘ishladi va ixtirochilikka bo‘lgan qiziqishimizni yanayam oshirgani, rost. Shuning natijasi o‘laroq, bugungi kungacha masofadan boshqariladigan tanklarning uch xil namunasini ishlab chiqdik va hozir ularni test sinovlaridan o‘tkazish jarayonidamiz.

Shaxsan o‘zim 2022-yilda “Mirzo Ulug‘bek vorislari” tanlovida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdim. Tanlovga tankni suv ostida boshqarishning innovatsion yechimini taqdim qilganman. Unga ko‘ra, tankning tepasiga tashqi tomonni ko‘rsatuvchi kamera o‘rnatiladi, tankning oldida esa exolokatsiya bo‘ladi. U suv tagidagi to‘siqlarni va suvning chuqurligini aniqlaydi. Tank haydovchisi suvdan 5 metr chuqurlikda bir vaqtning o‘zida ham suvosti, ham suv ustidagi holatdan boxabar bo‘ladi. Mana shu loyiham bilan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan yosh olimlar uchun o‘tkaziladigan “Akademik harakatchanlik” dasturi tanlovida ham ishtirok etib, grant yutdim. Hozirgi kunda bu ilmiy ishlanmamning videosi oliy harbiy ta‘lim o‘quv dasturiga ham kiritilgan. Shuningdek, 2023-yilda “Texnofest” harbiylashgan texnologik marafonida ham ilmiy loyiham uchun 120 million grantni qo‘lga kiritdim. Shuningdek, “TechnoWays” tanlovida ham faxrli 1-o‘rinni egalladim.

Ta‘kidlashim joizki, bu loyihamning katta qismini Toshkent traktor zavodida

mutaxassislar bilan hamkorlikda konstruksiyasini ishlab chiqqanman va oliy harbiy ta‘lim muassasasida sinovdan o‘tkazib, videoroliklarini tayyorlaganmiz. Kursantlar suv ostida tankni boshqarishdan oldin, albatta, shu videorolikni ko‘radi va o‘zi uchun kerakli bilimga ega bo‘ladi.

Har bir musobaqaga har xil loyihalarimizni taqdim etganmiz. Masalan, yana bitta ishlanmamizda tank shlemiga mikrofon o‘rnatib, masofadan boshqarish usulini ixtiro qildik. Bunga nima turtki bo‘ldi, bizga? Biz zamonaviy BTR–82larni ko‘rdik. Ularda laringofonda foydalanmaydi. Mikrofon tashqaridagi ovozni filtirlab beradi. Shunda bizga tank shlemidagi simlarni ham olib tashlab, masofadan turib, kabelsiz aloqani ta‘minlash g‘oyasi keldi va shu loyiha ustida ish olib bordik. Bu ishlanmamiz ham o‘zini oqladi va unga ham grant ajratildi. Shunday qilib, biz tank ekipaji boshqaruvini tashqari bilan simsiz bog‘lashga erishdik. Endigi maqsadimiz, tanklarni ham bir-biri bilan simsiz aloqa bilan bog‘lashni ta‘minlashdir. Hozir shu ishlanma ustida ish ketyapti.

– “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotini shaxsan Prezidentimiz qo‘llaridan qabul qilib oldingiz. Ayting-chi o‘sha onlarda hayolingizdan nimalar kechdi?

– Bu lahzani hech qachon unutmayman. Prezidentimiz qo‘lidan mukofotni qabul qilar ekanman, ko‘z oldimdan barcha mehnatim, uyqusiz tunlarim va orzularim o‘tdi. Yuragimda faxr bilan birga katta mas‘uliyatni ham his qildim. Shu payt angladimki, bu mukofot faqat e‘tirof emas, balki yanada katta ishlarni qilishga undaydigan ishonchdir. Men bu ishonchni, albatta oqlayman.

– Bu mukofot siz uchun natijami yoki boshlanish?

– Bu men uchun yangi marraga qo‘yilgan ilk qadam. Chunki haqiqiy yo‘l aynan e‘tirofdan keyin boshlanadi. Shunday ekan, men yanada kattaroq maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zlayapman.

– Yosh bo‘lishingizga qaramay, shu kungacha erishgan muvaffaqiyatlaringiz talaygina. Fursatdan foydalanib, siz haqingizda o‘qiyotgan, siz kabi ixtirochilikka qiziquvchi kursantlarga, yosh harbiy xizmatchilarga nima degan bo‘lardingiz.

– Yoshlarga aytar so‘zim: intilishlaringizni, qiziqishlaringizni yuzaga chiqaring. Ixtiro qilishdan qo‘rqmang. Chunki haqiqiy kuch texnikada emas, uni yaratayotgan insonning qalbi va irodasida. Agar siz ishonsangiz va izlanishdan to‘xtamasangiz, bir kun kelib, albatta muvaffaqiyat qozonasiz!

– Samimiy suhbatingiz uchun tashakkur.

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA
suhbatlashdi.**

Uch avlod uchrashuvi

QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI – TARIXIY ADOLAT SABOG'I

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurbonlari bo'lgan vatandoshlar hayoti va faoliyatini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi Angren shahrida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilar ishtirokida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va tarixiy xotiralardan saboq olishga bag'ishlangan "Uch avlod uchrashuvi" loyihasi doirasida "Qatag'on qurbonlari xotirasi – tarixiy adolat sabog'i" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Tadbirning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilarda tarixiy xotiraga hurmat, milliy o'zlikni anglash, jadidlar merosini keng targ'ib qilish, qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyati orqali Vatanga sadoqat, qonun ustuvorligi, adolat va fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat bo'ldi.

Tadbirning kirish qismida "Nuroni" jamg'armasi axborot-tahlil va hududlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Majid Umarov so'zga chiqib, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, shukronalik, sabr-matонат, milliy birlik va hamjihatlikning ahamiyati haqida fikr bildirdi. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan mudofaa sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan zamonaviy xizmat va yashash sharoitlari, harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, intellektual va jismoniy tayyorgarlikni yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar haqida to'xtalib, askarlar ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanib, Vatan oldidagi muqaddas burchlarini sidqidildan ado etishlari lozimligini ta'kidladi.

Shundan so'ng "Qatag'on qurbonlari xotirasi – tarixiy adolat sabog'i" mavzusida ma'ruza taqdim etildi. Ma'ruza avvalida qatag'on tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berildi. Ta'kidlanganidek, qatag'on – muayyan shaxs yoki ijtimoiy qatlamni siyosiy sabablar bilan ta'qib qilish, ularning huquq va erkinliklarini cheklash, qamoqqa olish, surgun qilish, mol-mulkini musodara qilish va hatto hayotiga zomin bo'lishga qaratilgan davlat siyosati hisoblanadi.

Usmon Nosir yosh bo'lishiga qaramay, milliy she'riyat rivojiga ulkan hissa qo'shgani, uning "Yurak", "Mehrim", "Safarbar satrlar" kabi

she'rilarida Vatan muhabbati, erkinlik va inson qadri ulug'langani qayd etildi.

Shuningdek, Botu (Mahmud Hodiyyev)ning she'riyat va publitsistika sohasidagi faoliyati, Munavvarqori Abdurashidxonovning yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar tayyorlash, milliy matbuot va ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi xizmatlari haqida ham atroflicha ma'lumotlar berildi. Ma'ruzada O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan ikki davlat arbobi – Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromov faoliyatiga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Fayzulla Xo'jayev Buxoro jadidlik harakatining faol namoyandalardan biri sifatida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatini boshqargani, keyinchalik 1925–1937-yillarda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari

Soveti raisi sifatida respublikada davlat boshqaruvi, sanoatlashtirish, mahalliy kadrlar tayyorlash, yangi ta'lim muassasalari tashkil etish va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish ishlarida faol ishtirok etgani qayd etildi. Shu bilan birga, 1937-yilda siyosiy qatag'onlar davrida soxta ayblovlar bilan hibsga olinib, 1938-yilda qatl etilgani va keyinchalik to'liq oqlangani haqida ma'lumotlar berildi.

Akmal Ikromovning O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi sifatida respublika iqtisodiyoti, sanoatlashtirish, savodxonlikni oshirish, davlat boshqaruvi takomillashtirish ishlaridagi ishtiroki haqida fikr yuritildi. Shu bilan birga, totalitar tuzum hech kimni ayamasligi, u ham 1937-yilda asossiz ayblovlar

bilan hibsga olinib, 1938-yilda qatl etilgani va keyinchalik oqlangani tarixiy misol sifatida keltirildi.

Tadbir yakunida harbiy xizmatchilar bilan savol-javoblar o'tkazildi. Ishtirokchilar qatag'on qurbonlari tarixi, jadidlar harakati, milliy adabiyot va davlatchilik tarixiga oid qiziqish bildirib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldi.

O'tkazilgan tadbir harbiy xizmatchilarning tarixiy bilimlarini boyitish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlash, Vatan himoyachisi sifatidagi mas'uliyat hissini yanada oshirishga xizmat qildi hamda ishtirokchilar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi.

O'Z MUXBIRIMIZ



Prezident topshirig'i amalda

BITTA ASKAR — BITTA KASB: XIZMAT DAVRIDA KASB EGALLASH IMKONİYATI

Bugun O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida yosh avlodning zamonaviy kasb-hunar egallashi, ularning bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qurolli Kuchlar tizimidagi yangilanishlar ham buning yaqqol misolidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 7-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tash nufuzi va jozibadorligini oshirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohada yangi davrni boshlab berdi. Yangi chora-tadbirlar orasida muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni qisqa muddatda zamonaviy kasbga



o'qitishni nazarda tutuvchi "Bitta askar – bitta kasb" tamoyilining joriy etilishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida ham mazkur qaror ijrosi "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili asosida tashkil etilib, muddatli harbiy xizmatchilar zamonaviy kasblarga qisqa muddatli o'quv kurslarida bepul o'qitilmoqda. Yana bir e'tiborli tarafi, 3 oydan 6 oygacha bo'lgan maxsus o'quv kurslarida o'qitilayotgan askarlarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Xususan, bugungi kunning eng xaridorgir hunarlaridan – buxgalteriya, kompyuter grafik operatori, kompyuter axborot texnologiyalari va veb-sayt yaratish,



oshpazlik, erkaklar sartaroshlik ishlari yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlanmoqda.

– Armiya – hayot maktabi, – deydi leytenant Bekzod Siddiqov. – Bugun faxr va iftixor bilan ayta olamizki, armiya nafaqat hayot maktabi, balki zafar maktabiga ham aylantirildi. Cheksiz imkoniyatlar askarlar hayotining tubdan yangilanishiga

asos bo'lib, kelajak taqdirini belgilashida, yoki egallagan bilimlari asosida oliy ta'limda o'qishini davom ettirishi mumkin. Universitetimizda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar malakali o'qituvchi va murabbiylar tomonidan o'qitilmoqda. Askarlar nazariy va amaliy mashg'ulotlarni katta qiziqish bilan o'zlashtirmoqda.

Darhaqiqat, "Bitta askar – bitta kasb" tamoyilining muhim jihatlaridan biri – uning zamirida



askarning xizmatdan keyingi taqdiri ham davlat e'tiborida ekanidadir.

– Harbiy xizmat deganda ko'z oldimizga saf maydoni, qo'lida qurol ushlab postda turgan askarni xayol qilardim, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Shohjahon Jahonov. – Qisqa muddat ichida fikrim o'zgardi: armiya bizlarni jismoniy chiniqtirish va harbiy bilimlarimizni oshirish bilan bir qatorda, kelajakda o'z o'rnimizni topishimizga ham yo'l ko'rsatar ekan. Bolaligimning ma'lum qismi kompyuter o'yinlari bilan o'tdi. Texnologiyalarga qiziqishim ortidan xizmatim mobaynida veb-sayt yaratishni ham o'rganib oldim. Kelgusida zamonaviy kasblardan




biriga aylangan kiberxavfsizlik yo'nalishida o'qishimni davom ettirib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishni maqsad qilganman.

Oshpazlik sirlarini o'rganayotgan oddiy askar Avazbek Abdurashidovning aytishicha, kurslarda milliy va jahon taomlarini

tayyorlash texnologiyalari nazariy va amaliy mashg'ulotlar asosida o'rgatilmogda.

– Bilasiz, vodiy oshi bilan mashhur. Osh pishirishni otamdan o'rganganman. Askarlarga yaratib berilgan shart-sharoitlar doirasida oshpazlik sirlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldim. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar davomida nafaqat o'zbek milliy taomlari, balki jahon taomlarini amaliy jarayonlarda o'zlashtirib



hozirda matematika, fizika, ona tili, tarix va ingliz tili fanlaridan test sinovlariga tayyorgarlik jarayonlari ketmoqda. Universitetning axborot-resurs markazida oliy ta'lim muassasasiga kirishga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur bo'lgan maxsus va o'quv adabiyotlar, elektron shakldagi qo'llanmalar ham mavjud



bormoqdamiz, – deydi oddiy askar Avazbek Abdurashidov.

Kurslarda tahsil olayotgan askarlarning ko'zida olov, shijoat zohir, o'qiymen, o'rganaman, degan yuksak maqsad bilan, bilimlar ularning kelajagi uchun muhim poydevor ekanini his etgan holda olg'a intilmoqda.

Islohotlar faqatgina hunar o'rganish bilan cheklanib qolmaydi. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab, askarlar harbiy xizmatni o'tash davrining o'zidayoq oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, masofaviy shaklda ta'lim olishlari mumkin. Bu jarayonda harbiy qismlarning o'zida abiturientlarni tayyorlash kurslari yo'lga qo'yildi. Universitetda ham 5 ta fan bo'yicha malakali o'qituvchilar jalb etilgan,

bo'lib, askarlar bundan unumli foydalanmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganlaridek, ushbu chora-tadbirlar yurtimiz taraqqiyoti uchun yuqori bilim va malaka, yuqori intellektual salohiyatli hamda vatanparvar kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

"Bitta askar – bitta kasb" tamoyili va u bilan bog'liq imtiyozlar O'zbekiston armiyasini nafaqat Vatan himoyachilarini, balki mamlakat kelajagini quruvchi yuksak salohiyatli bunyodkorlarni tarbiyalaydigan mardlar maktabiga aylantirmoqda.

**Podpolkovnik
Alisher AGZAMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Axborotlashtirish va
multimedia markazi boshlig'i**



YOSH HARBIYLAR —

VATAN KELAJAGI QALQONI

Bugungi tinch osmon, barqaror hayot va ertangi kunga bo'lgan ishonch – bularning barchasi Vatan himoyachilari yelkasida turgan ulkan mas'uliyat samarasidir. Ana shu muqaddas burchni anglab, uni yurakdan his etayotgan yoshlar esa yurtimiz kelajagining eng ishonchli tayanchi bo'lib maydonga chiqmoqda.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligining Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismi madaniyat markazida o'tkazilgan "Yosh harbiylar forumi" ana shu ezgu maqsadlarni o'zida mujassam etgan muhim tadbirlardan biri bo'ldi. Forum nafaqat o'tgan ishlar sarhisobini chiqarish, balki ertangi vazifalarni aniq belgilab olish, ilg'or tajribalarni ommalashtirishga xizmat qildi.

Tadbirda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, Yoshlar ittifoqi Toshkent shahri kengashi rahbariyati, "Vatanning sadoqatli farzandi" nodavlat notijorat tashkiloti vakillari hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi. Bu esa yoshlar masalasiga bo'lgan e'tibor keng qamrovli va izchil ekanini yana bir bor namoyon qildi.

Forumning ochilish qismida so'zga chiqqan Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Jur'at Yakubov bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar va harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan imkoniyat-u imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash choralari haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng qo'mondonlikda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilgan ishlar aks etgan videorolik namoyish etildi. Unda amalga oshirilgan islohotlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar va yosh harbiylarning faol ishtiroki yaqqol namoyon bo'ldi.

Forum doirasida yana bir muhim qadam tashlandi – "Vatanning sadoqatli farzandlari" nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlik memorandumi imzolandi. Bu hujjat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Tadbinning eng hayajonli lahzalaridan biri esa, shubhasiz, yutuq sohiblarini taqdirlash marosimi bo'ldi. Sport, fan, madaniyat va san'at sohalarida yuqori natijalarga erishib, xalqaro va respublika miqyosida Vatan sharafiga munosib himoya qilayotgan bir guruh yosh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar, ko'krak nishonlari va qimmatbaho sovg'alar tantanali ravishda topshirildi. Bu

nafaqat e'tirof, balki boshqalar uchun ham ibrat va ilhom manbai bo'ldi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Forumning badiiy qismida harbiy orkestr jamoasi va estrada xonandalarining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari tadbirga alohida fayz bag'ishladi.

Qo'shiqlardagi har bir ohang, har bir so'z yuraklarda vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Shuni alohida

ta'kidlash joizki, bunday tadbirlar shunchaki bayram yoki yig'ilish emas, ular yoshlarni bir maqsad atrofida birlashtiruvchi, ularni intizom, mas'uliyat va fidoyilikka chorlovchi muhim ma'naviy

maktabdir. Ana shu ruhda tarbiya topgan yoshlar esa ertangi kunda Vatan himoyasida ishonchli qalqon bo'lib xizmat qiladi.

TOQQQ matbuot xizmati



HAQIQIY TAJRIBA MAYDONI

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan harbiy qismda Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tasarrufidagi qo'shilma va harbiy qism komandirlarining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, harbiy psixologlar va shtatdan tashqari harbiy korrespondentlar hamda matbuot xizmati operatorlari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.

Uch kun davom etgan yig'in dastlab saf ko'rigidan boshlandi. Bunda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlarining saf tayyorgarligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari baholandi.

Asosiy mashg'ulotlar harbiy qism madaniyat markazida davom etdi. Bu yerda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni tashkil etish usullari, huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlari, shuningdek jangchining yuksak jangovar va axloqiy-ruhiy holatini ta'minlashga doir zamonaviy yondashuvlar muhokama qilindi. Soha mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan darslar nazariya bilan cheklanib qolmadi – ular amaliyot bilan uyg'unlashtirildi.

Eng muhimi, ishtirokchilar faqat tinglovchi bo'lib qolmadi. Ular o'z tajribalari, ilg'or yondashuvlari bilan o'rtoqlashdi, bahs-munozaralar orqali bilimlarini mustahkamladi. Bu esa yig'inni oddiy ma'ruza emas, balki fikrlar almashinuvi maydoniga aylantirdi.

Albatta, yig'in doirasida jismoniy tayyorgarlik ham e'tibordan chetda qolmadi: qisqa va uzoq masofalarga yugurish, turnikda tortilish bo'yicha sinovlar orqali harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik darajasi baholandi. Shu bilan birga, jamoaviy sport musobaqalari orqali sog'lom raqobat muhiti yaratildi.

Yig'inning navbatdagi bosqichi "Chirchiq" dala-o'quv maydonida o'tkazildi. Bu yerda mashg'ulotlar yanada real sharoitga yaqinlashdi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini shakllantirish, ekstremal vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'rgazmali mashg'ulotlar tashkil etildi. Yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish, jamoaviy harakat qilish kabi mashqlar harbiy birodarlikni yanada mustahkamladi.

O'q otish va texnik tayyorgarlik mashg'ulotlarida ishtirokchilar belgilangan me'yorlarni bajarib, o'z malakasini sinovdan o'tkazdi. Bu jarayonda aniqlik, tezkorlik va mas'uliyat asosiy mezon sifatida namoyon bo'ldi.

Shuningdek, yig'in doirasida ishtirokchilar poytaxtimizda joylashgan Islom sivilizatsiyasi markaziga ham tashrif buyurdi. Bu tashrif harbiy xizmatchilarning dunyoqarashini kengaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini mustahkamlashga xizmat qildi. U yerdagi ekspozitsiyalar orqali ular sivilizatsiya tarixi va uning ma'naviy ildizlari bilan yaqindan tanishdi.

Kun yakunlari ham mazmunli tashkil etildi. Harbiy orkestr jamoasi tomonidan taqdim etilgan konsert dasturlari ishtirokchilarga

madaniy orom bag'ishladi, ruhiy ko'tarinkilikni ta'minladi.

O'quv yig'ini so'ngida o'tgan davr mobaynida yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalar belgilanib, o'quv-uslubiy yig'inida

faol ishtirok etgan bir guruh ofitserlarga diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

Shahnoza SULTONOVA,
TOQQQ matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



Chegara qo'shinlarida

Tong shabadasi yurtimiz sarhadlarini silab o'tarkan, ufqda bosh ko'tarayotgan quyosh nurlari Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanini qo'shni respublika bilan chegara hududlarini himoya qilishda muhim majmua hisoblangan yangi Chegarani qo'riqlash vzvodi peshtoqlarini asta yoritdi.

SARHAD

HIMOYACHILARIGA YANGI XIZMAT XONADONLARI TOPSHIRILDI

Bu shunchaki oddiy tong emas, balki Vatan sarhadlarini ko'z qorachig'idek asrayotgan mard o'g'lonlar hayotida yangi bir sahifa, unutilmas tarixiy kunning boshlanishi edi. Chegarachilar hayotiga zamonaviylik va qulaylik nafasi kirib keldi – ular uchun barcha sharoitlarga ega, ko'rkam harbiy shaharcha foydalanishga topshirildi.

Karnay-surnaylarning fayzli chorlovi, nog'oralarning quvonchli ovozi bilan boshlangan tadbirda viloyat va tuman hokimligi, chegaraoldi hududida istiqomat qiluvchi nuroniylar va kuch ishlatar tuzilmalar vakillari, shuningdek DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Unda so'z olganlar hukumatimiz tomonidan Vatan posbonlariga qaratilayotgan e'tibor samarasi



o'laroq bugun yurtimiz tinch, sarhadlarimiz daxlsiz ekani ta'kidlandi va bino qurilishida ishtirok etgan quruvchilar mehnati e'tirof etildi.

Bu samimiy tilaklar va bildirilgan ishonch Chegara qo'shinlari rahbariyati tomonidan yelkasida yurt tinchligi va davlat chegaralarining daxlsizligidek mas'uliyatni ko'tarib turgan marosim ishtirokchilarining qalbini faxr-iftixorga to'ldirdi.

Sarhadimiz posbonlari quvonch bilan xizmat xonadonlarining kalitlarini qabul qilib olar ekan, qalblaridagi so'zlari tillariga ko'chib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, uning tinchligini o'z joni evaziga bo'lsa-da asrashga baralla va'da berdi.



Marosim davomida namunali xulqi, yuksak harbiy bilimi va jangovar tayyorgarligi bilan shaxsiy tarkib o'rtasida hurmatga sazovor bo'lgan bir guruh harbiy xizmatchilar qimmatbaho va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shundan so'ng mehmonlar tomonidan yaxshi niyatlar qanotida ramziy alvon tasma kesilib, chegarani qo'riqlash ma'muriy binosiga tashrif amalga oshirildi.



Tashrif davomida mehmonlar ma'muriy binoda davlat chegarasida kuzatuv kameralarining qo'llanilishi va harbiy xizmatchilar uchun zamonaviy uslubda bezatilgan va jihozlangan dam olish hamda o'quv xonalari, milliy va jahon adabiyoti namunalari bilan boyitilgan kutubxona, shuningdek jismoniy mashg'ulot xonalaridagi sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Mahalliy aholi vakillari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va yoshlar o'rtasida

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida hududda barpo etilgan kichik stadion ham chegaraoldi hududida istiqomat qiluvchi bolalar ixtiyoriga topshirildi.

Xizmat xonadonida yaratilgan sharoitlar tashrifchilarda shukronalik hissini uyg'otgan bo'lsa, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga bir olam quvonch ulashdi.

– Biz harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yaratilgan shart-sharoitlardan mamnunmiz, – deydi Chegarani qo'riqlash vzvodi komandiri mayor Begzod Umarov. – Shaxsiy tarkibning bir joyda jamlanishi davlat chegarasida sifatli qo'riqlovni amalga oshirish bilan bir qatorda har qanday muammoni hamjihatlikda hal qilishda juda muhim sanaladi.

Darhaqiqat, harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan bunday munosib sharoitlar yurtimizda Vatan himoyachilariga bo'lgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir yaqqol ifodasi bo'lib, Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti yo'lida inson qadri, xususan yurt osoyishtaligi va xavfsizligi yo'lida xizmat qilayotgan mard va jasur harbiylar manfaatlari ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Kapitan
Erkin YODGOROV**
DXX Chegara qo'shinlari



Amir Temur

BAYROG'IDAGI UCH HALQA

yoxud "Ming askar" jang san'ati

Har qanday saltanat aql, adolat, kuch poydevorida qad rostlaydi. Tangri saltanat tegirmonini yurgizishni hamma xalqning peshonasiga birdek bitgan emas. Tarix bunga guvoh.

Ota-bobolarimiz suv boshiga ko'p bor kelib-ketdi. Charx aylanib, avlodlarga ham navbat yetdi... O'tganlarning izini yodlamay, oqqan daryo o'zanlardan suvni qayta oqizmay, kuch-qudratni tiklash og'ir...

Yana aytadilarki, "eskini eslamok savob". Eski birgina eskiligi uchun yodlansa, eskiligicha qoladi. Meros qayta tiklanib, avlod "qon"iga payvand qilinsa, yangilanadi. Chinakam otameros mulkka aylanadi. Biz bu o'rinda saltanat poydevorining muhim tayanchi – kuch va uning aql-zakovat, tadbirkorlik bilan uyg'unligi xususida so'z yuritmoqchimiz.

Saltanat kuchi, avvalo shijoatli, jasur askarlarda namoyon bo'ladi. Sohibqiron Amir Temur jahongirlikka kirishganda yodida mahkam saqlagan to'rt narsa qatorida lashkarining o'zagini tashkil etgan 313 xos askarini alohida ta'kidlab aytadi: "...uch yuz o'n uch asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim. Birlik ittifoqda shunday ediki, barilari go'yo bir tandek edilar. Barchalarining maqsadlari, ra'ylari, so'zlari va ishlari bitta edi. Bir ishni qilaylik deb qaror qilsalar, tugatmagunlaricha undan qo'l uzmas edilar".

Amir Temur bu xos yigitlarining tengsiz jasoratlari haqida o'z "Tuzug"ida ko'p bor to'xtalib, ular saralaridan saralangan "...aql-hush egalari, bazm-u razm sherlari, mahoratli sarkarda, lashkar to'pini buzib, uni mag'lub etuvchi kishilar edi", deb ta'kidlaydi.

Amir Temur hamisha shijoatli kishilarni o'ziga do'st tutdi, ardoqladi. Yaxshilariga – yaxshilik qildi, yomonlarini o'z yomonliklariga topshirdi. Tarixchilar Amir Temurning ozgina askar bilan dushmanlarining ko'p sonli lashkarini yengib, qal'alarni olganini qator misollarda yozib qoldirgan.

Sohibqiron askarlaridagi hayratomuz kuch-qudratning siri nimada? Ayni savol hammani qiziqtirishi tabiiy. Bu sir avvalo sarkardaning tadbirkorligi, qolaversa askarlarning kuchliligi va ishonchlarida edi. Sarboz kuchi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Kuch yig'ilsa, ishonch tug'iladi. Ishonch esa g'alabani ta'minlaydi. Kuchga erishish uchun kuch beradigan ilmni bilish kerak. U qanday ilm o'zi? Amir Temur lashkarida shunday ilm bo'lganmi? Yo'q, deb aytishga tarix, bobolarimiz ko'rsatgan jasoratlar, qolaversa, Amir Temurning o'z hayotida kechirgan suronli voqealar imkon bermaydi. **Sohibqiron shonli yurishlari avvalida kechgan Alibek tutqunidan ozod bo'lgan paytlarini eslab aytadi:** "Kuchli va chaqqon bilaklarim ish berib, soqchilardan birining qo'lidan qilichini tortib oldim-da, ularga hamla qilgan edim, barisi qochib qoldi". Qurolsiz tutqun hushyor turgan soqchi qilichini tortib olib, butun to'pni bir hamlada tumtaraqay qilishi uchun qanchalik mohir jangchi bo'lishi kerak?

Amir Temur saltanat tuzgan ekan, lashkarining kuch-u qudratini do'st-u raqib tan olgan ekan, o'zi va lashkari kuch ilmidan xabardor bo'lishi shart edi. Lekin aniq yozma ma'lumotlar yo'qligi bizni ikkilantiradi. Ayni paytda kuch ilmini yozish, begonalarga o'rgatish yosoq bo'lganini, ota o'g'liga, ustoz shogirdigagina bor ilmini meros qoldirish an'anasiga qat'iy amal qilinganini yodlasak, qo'lyozma manba axtarishdan ko'ra xalq xotirasi va qon yodi ko'proq ma'lumot berishi mumkinligiga amin bo'lamiz.

AYTADILAR: "BOR YITMAS, YO'QNI YO'NDIRIB BO'LMAS!"

Qadim turkiy jang san'ati "Ming askar" ustasi – Masharip (*Mashrab*) Jumaniyozov – usta Madju bilan suhbatlashib, xalqimizda butun borliq mohiyati bilan uyg'un, falsafiy mifologik dunyoqarashlar asosida shakllangan, qat'iy tizimga ega – bir askarga ming askar kuch-u qudratini beruvchi jang ilmi bo'lganini bildik.

Usta Madjuning ota-bobolari – "Juma uchar"lar avlodi bu ilm sirlarini avloddan avlodga o'tkazib, shu kungacha saqlab kelgan. **Usta Madju aytadi:** "Jang san'ati uch tumor (*halqa*), o'ttiz uch yo'l, bir butun tizimdan iborat. Har bir yo'l ichida o'z usullari bor. Hisoblab chiqilsa, roppa-rosa ming usul hosil bo'ladi. Bir kishi shu ming usulni o'rgansa, "Ming askar"ga teng keluvchi, har qanday saltanatga tayanch yengilmas kuchga aylanadi". Ming askar maqomi sohibi bo'ladi.

Aqlga bo'ysunmagan dali kuch buzg'unchilik keltirishi mumkin. Ota-bobolarimiz bu xatarli ofat zararini yaxshi anglab yetgan, shu sababli tan va ruh tarbiyasini uyg'unlikda, vobastalikda olib borgan. "Ming askar" jang san'ati tizimida ana shu uyg'unlikning mukammal ko'rinishi namoyon.

E'tibor bering: uch halqa – 1 – tong otishi, 2 – tush vaqti, 3 – kun botishi. Tumor (*halqalar*)ning joylashuvi Amir Temur bayrog'idagi uch halqa tasviriga ham mos keladi. O'ttiz uch yo'l esa ushbu uch halqa tevaragiga quyosh chiqib botguniga qadar vaqt oralig'ida bir-bir joylashadi.

"Ming askar" jang yo'llarining tartibi:

1. Tovus tongi. 2. Shamol qilich. 3. Askarlar o'yini (1).
4. Qanotli pichoq. 5. Tepa ko'z. 6. Soya o'yin (1).
7. Yovvoyi ot. 8. Qo'sha tayoq. 9. Qurol o'yin (1).
10. Olovli yo'l. 11. Askarlar o'yini (2).
12. Chayon himoyasi. 13. Yaltiroq qilich. 14. Sehrli tayoq.
15. Dovyurak lochin. 16. Yengilmas aso. 17. Qaysar qurol – jabr qurol – qaytar qurol. 18. Zaharli nayza.
19. Olovli barxan. 20. Oltin qurol. 21. Qo'sha qilich.
22. Bo'ri ovi. 23. Askar o'yin (3).
24. Yildirim qilich. 25. Qurol o'yin (2).
26. Qirq oyoq. 27. Temir tirsak. 28. Soya o'yin (2).
29. Uchar xanjar. 30. Belbog' qilich. 31. Askar o'yin (4).
32. Ajdarho qahri. 33. Toshbaqa – temir qalqon.

"Ming askar" jang san'ati usullarining birinchisi "Tovus tongi" deb nomlanishi bejiz emas. Odatda kecha-kunduz fikri-yodi jang bo'lgan askarning ko'zi qonga to'lib, tap tortmay haq-u nohaqni yanchib, yo'q qilib ketishi hech gap emas. "Tovus tongi" mashqi askarni sokinlashtiradi, xayollarini tinitadi. Ko'nglida butun borliq bilan birlik hissini uyg'otadi. Askar borliq bilan uyg'unlashadi. Bir so'z bilan aytilsa, har bir askar jannat qushi – tovusga evriladi. Navbatdagi mashqlar shu sokin asosga qurilib, askar mashqlar zinasidan bir-bir ko'tarilib borgan, o'ttiz ikkinchi mashq "Ajdarho qahri"ga yetganda yengilmas qudrat kasb etgan. So'nggi mashq "Toshbaqa – temir qalqon"ni egallagan askar tani va ruhida yig'ilgan kuchni jamlab, bir qal'a qurib, har bir qadamini bilib bosguvchi, raqibiga zarracha ustunlik imkonini qoldirmaydigan, sokin, dono alp sifatida tungi oromga ketgan.

Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, "Ming askar" jang san'ati ommaviy tus olgan. Amir Temir o'nboshi, yuzboshi, mingboshi, amirlarni



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

tayinlashda nomzodlarning qancha jang usulini bilishiga ham alohida e'tibor bergan. "Ming askar" jang usulini mukammal bilib, jasorat ko'rsatgan jangchilar maxsus o'n musht uzunligida, qalinligi o'tning ko'zidek keluvchi, og'irligi besh kilo chiqadigan oltin qurol bilan taqdirlangan. Bu qurol bilan har qanday hamladan himoyalani, har qanday jangchini mag'lub etish mumkin bo'lgan. Chunki ming usul sohibida bu oltin yaroq sehrli qudrat kasb etgan. Unga jangchining nasli, tug'ilgan joyi, ko'rsatgan jasoratlari yozib qo'yilgan.

OLTIN – QUDRAT BERUVCHI MA'DAN

Oltin qurol jangchini tovusning holatiga solgan. Tovusning jahli chiqmaydi. Shuncha zeb-ziynati, go'zalligi bo'lsa-da, sekin yuradi. Jangchi ham og'ir-bosiq bo'lsa, vaziyatning xojasiga aylanadi. Oltin qurolning sehrli kuchi ham shunda.

"Ming askar" jang san'ati mashqlarini ommaviy o'tkazish, urushda qo'llash tartibi ham bu san'atga asos qilib olingan tovus tabiati, xatti-harakatlariga uyg'un keladi. **E'tibor berilsa:** tovusning patlarini yoyib-yig'ib o'z go'zalligini namoyish etishi, boshini sarak-sarak etib atrofnı sinchiklab kuzatishi ming askar jangchilarining sardorlari yetakchiligida dushman to'piga hujum qilishlari, jang olib borishlariga ulgu qilib olingan.

Usta Madju tez-tez qaytaruvchi yana bir gap bor: "Qadim turkiy jang san'atining "Ming askar" deb atalishiga sabab unda ming jang usulining borligigina emas, bu bir askarning ming usulni egallab, ming askarga aylana olishiga ishoradir. Bir usulni bilganga askar deganlar. O'n usulni bilgan – o'n askar, yuz usulni bilgan – yuz askar, ming usulni bilgan esa ming askar deb atalgan".

"Ming askar" jang usullari faqat urushish yo'l-yo'rig'i emas, ayni damda mustahkam sog'liq, jismoniy-ruhiy quvvat mashqlaridir.

Bu mashqlarni muntazam ravishda bajargan kishi sog'lom bo'lgan, umriga umr qo'shilgan. Qoni tozarib, ruhi kamolot bosqichlariga ko'tarilgan. Shunday ekan, "Ming askar" jang san'ati usullarini to'liq qayta tiklab, ommalashtirish bugungi kun uchun, xalq va avlodlar salomatligi, ruhiy yuksalishi uchun ham zarurdir.

O'zbekiston askarlarini "Ming askar" maqomida ko'raylik, dunyo shunday tanisin!

Shomirza TURDIMOV,
filologiya fanlari doktori,
folklorshunos olim

Xalq og'zaki ijodi

BOBUR VA SHAYBONIYXON

harbiy-siyosiy kurashi baxshi talqinida

O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutuvchi shaxslardan biri, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Buyuk ajdodimizning siyosiy va harbiy hayot yo'li nafaqat Turon, balki dunyo tarixida ham o'chmas iz qoldirgan. Boburning shaxsiyati xalq og'zaki ijodi, xususan tarixiy dostonlarda ham o'z aksini topgan.

Yuzyilliklar davomida milliy baxshilarimiz og'zaki ijro qilib kelgan o'zbek xalq dostonlari mazmun va xususiyatiga ko'ra tasniflanib, qahramonlik, jangnoma, tarixiy hamda kitobiy singari mustaqil yo'nalishlarga ajratilgan. Ayniqsa, tarixiy dostonlar milliy tariximizda yuz bergan jarayonlar hamda tarixiy shaxslar haqida aniq ma'lumotlar bera oladigan manba sifatida qadrlidir. Dostonlarda davriy ketmaketlik, ayrim tarixiy ma'lumotlar va dalillarda kichik xatoliklar bo'lishi tabiiy. Biroq bu orqali xalq tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida o'zining bahosini berishga harakat qilgani namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbek xalq tarixiy dostonlari millatimizning uzoq ajdodlari hayoti bilan chambarchars bog'liq holda yaratilib, rivojlanib kelgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxon badiiy timsollari tarixiy dostonlar turkumiga kiruvchi “Oychinor” va “Shayboniyxon” dostonlarida aks etgan. Ushbu dostonlarda 15-16-yuzyilliklarda xalqimiz boshidan o'tkazgan og'ir sinovlar, harbiy to'qnashuvlar va hokimiyat uchun olib borilgan kurashlar mohiyati Bobur hamda Shayboniyxon o'rtaqidagi ziddiyatli munosabatlar asosida yoritilgan. “Oychinor” dostonini Qodir baxshi Rahim o'g'li tog'asi Turdi shoirdan o'rgangan va uni ijodiy qayta boyitib, bizgacha yetkazgan. Shayboniyxon dostoni esa xalqimizning mashhur baxshisi Muhammad Jomurod o'g'li Po'ltan ijrosidan 1927-yili Fotma Mirzo degan kishi tomonidan yozib olingan va 1928-yilda folklorshunos olim Hodi Zarifov tomonidan arab imlosida nashrga tayyorlangan. Ikki hukmdor nomi baxshilar tomonidan “Oychinor”da “Bobir” va “Shayboniy”, “Shayboniyxon” dostonida esa “Bovirxon” hamda “Shayvali” shaklida ijro etilgan.

“Shayboniyxon” dostonida asosan Shayvali obrazi keng talqin qilingan bo'lsa, “Oychinor”da shoh va shoir Boburning badiiy timsoliga nisbatan kengroq urg'u berilgan hamda uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Haqiqatan ham, dostonlarda Shayboniyxon va Boburning tarixiy shaxs sifatidagi keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy faoliyati, adabiy ijoddagi muvaffaqiyatlari hamda u yashagan davrning tarixiy-madaniy muhitiga oid shart-sharoitlar to'liq hamda mufassal yoritilmagan. Shunga qaramay, asarlarda yaratilgan “Bobir”, “Bovirxon” va “Shayboniy”, “Shayvali” epik timsollari tarixiy shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur hamda Shayboniyxon siymosi haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Dostonlarda Boburning faqat Turondagi davri hikoya qilinib, uning Hind va Afg'on diyoridagi siyosiy-ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan emas. Jumladan, “Oychinor” dostoni o'zbek xalq og'zaki ijodida Bobur obrazini ilk bor keng epik yo'nalishda badiiy tasvirlab bergani jihatidan alohida e'tiborni tortadi. Dostondagi Bobur obraziga xalq orzusidagi adolatli davlat boshlig'iga xos muhim xususiyatlar, belgilar singdirilgan. Asar mutlaq tarixiy xarakterga ega bo'lib, unda Bobur degan yosh yigit Andijon hukmdori ekanini aytiladi. Bu ma'lumot esa tarixiy

haqiqatga to'laqlonli mos keladi.

Dostonning boshlanma qismida baxshi Bobur shaxsini tinglovchilarga tanishtirar ekan, uning tashqi qiyofasini epik qahramonlarga xos badiiy talqin asosida tasvirlaydi: “Nazarboy qulluq qilib chodirga Boburning oldiga boradi. To'ra bir yosh yigit chordana qurib o'tiribdi. Boshida tilla toj qo'ndirilgan salla, ustida zarbof to'nlar, murti lab ustida o'ziga yarashib turibdi. O'zi polvon siyoqli, burgut qaboqli, har egni qirday, qarashi to'qaydagi sherday. O'ng va chap tomonida bashang kiyingan ikki mo'ysafid, qo'llarida tasbeh, haligi yigitga muntazir bo'lib turibdi. Bularni ko'rib Nazarboy: “Bobur shoh shu bo'lsa kerak”, deb nafasi ichiga tushib ketdi”. Zahiriddin Muhammad Boburning juda yosh chog'ida hukmdorlik tojini kiyganini hisobga olsak, dostondagi parcha tarixiy asosga ega ekaniga guvoh bo'lamiz.

Shayboniyxon tarixiy timsoli esa dostonlarda tajribali, ayyor va hiylakor harbiy yetakchi sifatida talqin etilgan. Bu “Oychinor”dagi quyidagi parchada o'z isbotini topadi: “Shayboniy Qaysarning gapi bo'yicha otlarga chaparlarni sudratgan edi. Soyda yigirmata, o'ttizta navkar bo'lib, ot chopib chapar sudratib, changitib yotgan edi. Ba'zi navkarlar tepaga chiqib, bir ko'rinish berib qo'yar edi. Bo'lmasa, Shayboniyning lashkari ham Boburning lashkaridan uncha ko'p emas edi.

Shayboniy Boburning urush qilishidan qo'rqar edi”. Ko'rinib turibdiki, Shayboniyning tajribali sardor sifatidagi kuchi hamda uning harbiy bilimi g'alabalarining omili ekani kuylangan. Biroq bu harbiy usulni Shayboniyxon Bobur Mirzoga qarshi qo'llagan emas. Sun'iy chang chiqarish orqali dushmanga ko'p sonli lashkar yaqinlashayotgandek taassurot berib, ruhiy bosim o'tkazilgan. Turon harbiy an'analari raqibni chalg'itish va aldash o'ziga xos urush usuli hisoblangan. O'rta asrlarda xuddi shu harbiy hiylani sohibqiron Amir Temur dushmanlarga qarshi qo'llaganini Sharofiddin Ali Yazdiy o'zining “Zafarnoma” asarida qayd etgan. 1364-yili Ilyos Xojani Keshdan haydab chiqarishda bor-yo'g'i 300 kishidan iborat otliq askari otlarining ikki tarafga shox-shabbalarni boylab, chang-to'zon ko'tarib, yirik lashkar kelayotgandek dushman ko'ngliga vahima solishi orqali dushmani chekinishga majbur qilgan.

Shayboniyxon dostonida esa ikki tarixiy shaxs o'rtaqidagi qarama-qarshilik baxshi tomonidan badiiy to'qima asosida taqdim etilgan. Shayboniy Samarqand hukmdori Boburning amaldorlaridan biri bo'lib, Jo'ravoy ismli vazir bilan kelishmovchilik sabab podsho uni saroydan haydaydi. Albatta, Shayboniyning Bobur Mirzo qo'l ostida amaldor bo'lishi hamda uning vaziri bilan janjallashib Samarqanddan quvilganining tarixiy asosi mavjud emas. Chunki Shayboniyxon Dashti Qipchoqda davlat tuzgan paytda



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Bobur Mirzo hali juda yosh edi. Biroq Shayboniyning o'z davrida Buxoroda ta'lim olgani va Samarqandda bo'lgani, shuningdek temuriyzodalar qo'lida harbiy xizmatchi bo'lganini hisobga olsak, tarixiy haqiqatga ishora borligini ko'rishimiz mumkin. Demak, Shayboniyxon Turonning shaharlari bilan avvaldan tanish bo'lgani tarixiy manbalar qatorida ushbu tarixiy dostonida ham ifodasini topgan.

Shuningdek, Shayboniyxonning Turon hududiga haqiqiy xavf ekani, bosqinining jiddiy oqibatlarini dostonida ifodalinishi tabiiy hol. “Shayboniyxon” dostonidagi quyidagi parchada 16-yuzyillikning so'nggi choragida Dashti Qipchoqdagi chorvador o'zbeklar davlatining kuch-qudratiga, uning Turonga jiddiy xavf solib turganiga Bovirxonning To'ravoy ismli vazirining so'zlari orqali ishora qiladi:

*Shayvali urug'li eldi Bovirxon,
Shayvali o'lsa, o'zbeklar bilar.
Osh pichog'in bari charxlashib,
Qirilgani nayza qip o'zbeklar.
Juring deyishib yoppa-jovlik jiyilib,
O'zbek degan ko'p mehrlil Bovirxon
Samarqan shahringni tep-tekis qilar.*

Ikki hukmdorning tarixiy nizo, harbiy to'qnashuvlari esa dostonida Boburning vaziri Jo'ravoy bilan Shayboniyning mojarosi oqibatida kelib chiqqani baxshi tomonidan badiiy bo'yoq ostiga olingan.

Bu davrning yana bir ahamiyatli masalasi hisoblangan Temuriylar davrining so'ngidagi inqiroz, ichki ziddiyatlari “Oychinor” dostonida badiiy ijod orqali ko'rsatib berishga harakat qilingan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da qayd etishicha, Uzun Hasan va Ahmad Tanbal birlashib, unga qarshi fitna qo'zg'atib, aka-ukalar o'rtasida nifoq urug'ini sochishga intilgan. Dostonda Bobur hukmronligi chog'ida bo'lgan ichki fitnalar uning vaziri Qaysar obrazi orqali namoyon qilingan. **Dostonda shunday qayd etilgan:** “Vazir Qaysar Bobirning otasi o'lgandan keyin Bobirga ham vazirlik qilgan edi. “Bobir ham yosh bola, uni ham o'z nog'oramga o'ynataman, qilolmagan ishlarimni endi qilaman”, deb o'ylagan edi. Lekin bo'lmadi: Bobir otasidan ham dono, zukko, o'zining bilganini qiladigan, o'zganing gapiga kirmaydigan bo'lib chiqdi. **Hatto Qaysarning ba'zi gaplariga** “Vazir dono bo'lsa, yurtning ham obod bo'lar, vaziring bo'lsa xatak, obod yurt noobod bo'lar”, deb kulib qo'yar edi. Shu vaqtlarda Shayboniy degan xon chiqib qolgan edi. Qaysar Shayboniyxon bilan gaplashib yurar edi. Bobur Qaysarning gapiga kirib, Andijonda Shayboniy bilan urushda shaharni tashlab chiqib ketgan edi”.

Shunday murakkab vaziyatda Bobur Mirzo Shayboniyxon bilan sulh tuzishga majbur bo'lganiga tarix guvoh. “Shayboniyxon” dostonida Shayvali tomonidan Bovirxon oldiga “sulh” tuzish haqidagi taklif qo'yilishi sahnasining kiritilishi tabiiydir. Zotan, baxshining so'zlari zamirida tarixiy haqiqat mavjudligini payqash qiyin emas. “Boburnoma” asarida shunday deyiladi: “*Shayboqxon sulh so'zini oraga soldi. Agar bir tarafdin umidvorlig' bo'lsa edi, yo xaxira bo'lsa, sulh so'ziga kim quloq solur edi. Zarurat bo'ldi, sulhguna qilib, kechadin ikki paxr bo'la yovushib edikim, Shayxzoda darvozasidan chiqildi*”.

“Oychinor” dostonida ham sulh tuzishga qaratilgan fikrlar mavjud. Shayboniyxon bir otliqni elchi qilib Boburning oldiga yuboradi. Otliq: “Ey Boburshoh, urush qilasizmi yoki yurttni tinchgina topshirasizmi?” dedi. Boburshoh esa: “Hov elchi, bu joy Shayboniyning chegarasiga kirmaydi, chegarasiga kirsas, yozgacha ruxsat berarmikan”, deydi. Shunda elchi: “Shayboniyning chegarasi bu yog'i Xo'tan, bu yog'i Amu, Shayboniy bunga ruxsat bermaydi”, deydi. Bobur maslahat qilishi kerakligini aytadi. Javobini tongda aytaman, deydi. Sulh oqibati esa Bobur Mirzo uchun naqadar og'ir bo'lgani hamda yurttni tashlab ketishga majbur etilgani to'g'risida tarixiy manbalar aniq ma'lumotlar bergan.

Asarda Bobur va Shayboniy munosabatlaridagi muhim nuqta shuki, Shayboniy o'zining chegaralarini aniq belgilab olgani ifodalanadi. Amudaryo ikki hukmdor o'rtasidagi chegara sifatida qayd etiladi. Dostonda ham Bobur Turonni Amudaryo orqali tark etgani tarixiy haqiqat bilan to'liq mos keladi. Shuningdek, Bobur ham yurtndan butunlay ketmoqchi emasligi, yana qaytishni maqsad qilgani urg'ulanadi. Shu sababdan ham Zahiriddin Muhammad Bobur Turonni tark etganidan so'ng ham Samarqandni bir necha marta egallashga harakat qilganiga ishora bergan bo'lishi mumkin.

Boburning Vatanni tashlab ketishdagi ichki kechinmalari, iztiroblari hamda ichki ziddiyatlardan charchagani xalqning e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas edi.

Zahiriddin Muhammad Boburning iztiroblari, yurt qayg'usi uning ruboiylarida ham o'z aksini topib, buyuk hukmdor Bobur endi Vatandan yiroqlikni, garchi bu martaba Hindiston taxti bo'lsa ham, qismatdagi “yuz qarolig” deb hisoblaydi:

*To'le' yoqi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!*

Umuman olganda, mazkur ikki tarixiy dostonida na Bobur Mirzo, na Shayboniyxon mutlaqo salbiy qahramon sifatida tasvirlanadi. Baxshi ularga butunlay salbiy bo'yoq berishdan qochadi. Biroq ushbu dostonlarda Zahiriddin Muhammad Boburning Shayboniyxon bilan siyosiy raqobatiga ikki xil qarash mavjudligini payqash mumkin. “Oychinor”da Bobur shaxsiga kuchli e'tibor qaratilib, yosh, zukko va aql-zakovatli yigit sifatida tasvirlansa, Shayboniyxon haqida qisqaroq to'xtalib o'tilgan. “Shayboniyxon” dostonida esa asosiy urg'u Shayboniyga qaratilib, Boburning Samarqand hukmdori sifatida Shayboniyxon bilan harbiy to'qnashuvi tilga olinishi orqali asl tarixiy mohiyat yoritib beriladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Temuriylar sulolasining so'nggi yirik vakili ekani urg'ulanib, davrning ichki ziddiyat, fitna va qaramaqarshiliklari mahorat bilan kuylangan. Shu bilan birga, Shayboniyxondan mag'lubiyatga uchragach, Boburning Amudaryoni kechib Afg'oniston tomon yo'l olishi uning tarixida keskin o'zgarish yasanagan burilish nuqtasi bo'lib, baxshining ijrosi tarixiy voqealar rivoji bilan to'liq uyg'unlashadi.

**Muxtorjon TOLIBBOYEV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti tayanch doktoranti**

“Eng yaxshi kitobxon” tanlovi nomzodlari uchun

Nega she'r O'QISHIMIZ KERAK?!

Kecha suratlar albomimni titkilab, olis bolaligimga tushib qolgandek bo'ldim. Suratlar jonlandi – qachon, qayerda, qanday holatda rasmga olishganiyu, uning mualliflari ham ko'z oldimdan birma-bir o'tdi. So'ng shu albom yonida turgan bolalik she'r daftari ham qo'limga olib, eski mashqlarimga nazar tashladim. Qaysidir ma'noda o'xshamagan she'rlar, ularning barchasidan kechib yuborganman, ammo nimadir bordek o'sha she'rlarda ham. O'ylab ko'rsam, shu satrlarda ham muhrlanib qolgan lahza va xotiralar bor ekan. Odam ikki holatda lahzalarni, umrni ushlab qolishini tushunib yetdim. Yo suratga olib ushlab qolasiz, yoki o'sha lahzani yozib.

Shu o'rinda, nega kitob o'qishimiz, she'r o'qishimiz kerak, degan savolning javobini topgandek bo'ldim. Hozir aniq eslayman, ilk bor o'qib tugatgan kitobimni, yod olgan she'rimni ham. Unda ham lahzalarni ushlab qolish imkoni bor. Birinchi muhabbat qo'ygan sevgan qizimning lo'ppi yuzlari ko'z oldimda o'z o'zidan jonlanib turadi hozir ham. Nechta bolasi bor, bugun qanday holatda ekani menga qorong'i. Menda uni eslatib turadigan o'sha tuyg'u yuzaga chiqaradigan sabablar bor. Ulardan biri she'rdir. O'sha qishloq go'zaliga yoqish uchun yod olingan she'rlar. Har gal o'sha she'r degan tiriklik bilan ro'baro' bo'lganimda bolaligim, muhabbatim, xotiralarim

bilan yuzlashaveraman. Mana, nega she'r o'qish kerak, qarindosh!

Men o'zim haqimda so'zlab, o'qirmanning boshini batang qilmoqchi emasman. O'smirlik xotiralarimda o'z o'rnini mustahkam egallagan bir ustoz shoir ijodi haqida to'xtalmoqchiman. Bolaligim kitoblar orasida o'tgan, desam, sizni aldayman, bolaligim ikki-uch kitob orasida o'tgan, desam, adashmayman.

Shulardan biri O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyiddir. Boshimizga bolish bo'lgan “Kuydim” nomli to'plamni hozir ham kitob javonimizning eng ko'zga ko'ringan joylarida saqlaymiz. Kitob o'z nomi bilan kuydim, yuraklarni kuydirib kul qilguvchi javohir bo'lgan o'ziyam. Sahifalar sathida bir durdona asar borki, yurakni tilka-pora qilmog'i bor gap. Agar sizning qulog'ingizga she'r bo'lib kirmagan bo'lsa, tayinki kuy bo'lib chalingan. Ulug' san'atkorimiz O'zbekiston Xalq hofizi Sherali Jo'rayev juda mohirlik bilan kuylab, ko'ngillarni sel qilgan, desam, mubolag'a bo'lmas.

*Men ishq elining nola-yu afg'onida kuydim,
Ko'ngil uyining otashi armonida kuydim.*

*Mehrin tilabon o'tsa agar oshiqi zorlar,
Mehrimni berib, men esa tovonida kuydim.*

*Mushkul edi yo'l, ranj ila izhoriga yetdim,
Sizlar ko'yida, men esa domonida kuydim.*

*Do'st kim, raqib kim, haq birla hakim kim, –
Bilmay aslin, lol ila hayronida kuydim.*



*Har yon sado berdi maning zori dilimga,
Intildim-u, lekin dag'i har yonida kuydim.*

*Dunyoyi azalning g'azaliy matla'yi buldur:
Boshlab hama ishni ani poyonida kuydim.*

*Ham maksad-u, ham matlab-u, ham dard-u va ham ishq,
Ham ishq elining nola-yu afg'onida kuydim.*

Voh-voh, qanday g'azal! Odatda she'rlardan satr yoki kuplet olib tahlil qilaman, ammo bu g'azal qoshida jim qoldim. Misralarni bir-biridan ajratolmadim.

Sharq mumtoz she'riyatida ishq insonni komillikka yetaklovchi eng ulug' qudrat sifatida talqin etiladi. Haqiqiy oshiq uchun ishq nafaqat visol zavqi, balki hijron, iztirob, fidoyilik va o'zlikdan kechishdir.

G'azal ishq ahlining nolasi bilan boshlanadi. Bu nola oddiy shikoyat emas, balki qalbni poklovchi, ruhni yuksaltiruvchi ilohiy sado, ohangdir. Oshiq o'zini ishq yo'lining tasodifiy yo'lovchisi emas, balki uning dardini, armoni va mashaqqatini o'z taqdiriga aylantirgan inson sifatida tasvirlaydi. Uning qalbi armon olovida yonadi, ammo bu olov uni yemirmaydi, aksincha, tobora poklaydi va kamolot sari yetaklaydi.

Tasavvufda olov nafsni kuydirib, ruhni poklovchi ramz hisoblanadi. Shu bois g'azaldagi “kuyish” obrazi fojidan ko'ra ma'naviy yetuklikdir.

Hamma mehr izlab yurgan jahonda shoir o'z mehrini o'zgalarga baxsh etadi. Evaziga esa hijron, iztirob oladi. Rostdanam-da, muhabbat tamasiz bo'lmog'i kerak! Axir sevgi manfaat kutadigan tuyg'u emas, balki butunlay o'zini baxshida etgan kishigina uning asl mohiyatini anglaydi, ishq o'tida kuyadi. Ishq esa olish emas, berish ekanini tushunadi.

“BOSHLAB HAMA ISHNI ANI POYONIDA KUYDIM”

Oshiqning har bir qadami yangi bir boshlanish bo'lsa, uning yakunida yana o'sha ishq olovi qarshi oladi. Oshiq uchun kuyish ayriliqning emas, muhabbatning tirikligidir. Har bir boshlanish yangi umidni uyg'otsa-da, uning poyonida yana ishq olovi, hijron va armon bor. Shu bois “kuyish” mag'lubiyat emas, balki visoldir.

O'zimni adabiyotshunos yoki g'azalni zo'r tahlil qiluvchi mutaxassis demayman. Men oshiqman, muxlisman, she'riyatning, adabiyotning oshig'i. Shu bois ko'nglimdan o'tgan tuyg'ularni qoralayman. She'r o'qib, yig'layman, kulaman, yashayotganimni his qilaman. Mana, nima uchun she'r o'qish kerak, qarindosh!

**Muhammadali G'AFFOROV,
“Vatanparvar”**



JANGOVAR

muvaffaqiyat asosi



Harbiy xizmat inson faoliyatining eng murakkab va mas'uliyatli sohalaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish hamda zarurat tug'ilganda jangovar topshiriqlarni bajarish uchun doimo tayyor holatda bo'lishi lozim. Bunday faoliyat esa nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlikni ham talab qiladi. Chunki jang maydonida qurolni inson boshqaradi, inson harakatini esa uning ongi, tafakkuri va ruhiy holati belgilaydi.

Zamonaviy harbiy psixologiya fanida insonning ruhiy tayyorgarligi jangovar muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bugungi globalashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda harbiy xizmatchi nafaqat real jangovar tahdidlarga, balki psixologik bosim, axborot xurujlari, dezinformatsiya va ruhiy manipulyatsiyalarga ham qarshi turishi kerak bo'lmoqda. Shu sababli "jang maydonidan oldin ong yutadi" degan tamoyil zamonaviy harbiy psixologiyaning muhim nazariy va amaliy asosiga aylangan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yirik sarkardalar ham jangdagi g'alaba avvalo askarlarning ruhiy holatiga bog'liq ekanini ta'kidlagan. Chunki ruhiy jihatdan tayyor bo'lmagan askar kuchli qurolga ega bo'lsa ham, murakkab vaziyatlarda o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Aksincha, ruhiy barqaror, irodali va maqsadga yo'naltirilgan harbiy xizmatchi og'ir sharoitlarda ham samarali harakat qiladi.

Harbiy psixologiya – psixologiya fanining harbiy faoliyat jarayonidagi inson ruhiyati, xulq-atvori va psixologik holatlarini o'rganadigan maxsus yo'nalish. Ushbu fan harbiy xizmatchining jangovar sharoitdagi ruhiy imkoniyatlarini tahlil qiladi, stress va xavfli vaziyatlarda insonning psixik reaksiyalarini o'rganadi hamda ruhiy tayyorgarlik usullarini ishlab chiqadi.

Harbiy psixologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish;
- stressga chidamlilikni rivojlantirish;
- jamoada sog'lom psixologik muhit yaratish;

- qo'rquv va vahimani boshqarish;
- jangovar ruhni mustahkamlash;
- ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Harbiy faoliyat doimiy xavf va yuqori mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgani sababli inson ruhiyati kuchli bosim ostida ishlaydi. Shu sababli psixologik tayyorgarlik harbiy tayyorgarlik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Psixologlarning fikricha, inson organizmi stress vaziyatida "kurash yoki qochish" reaksiyasini namoyon qiladi. Bu fiziologik mexanizm qadimdan mavjud bo'lib, xavfli vaziyatlarda organizmni himoya qilish vazifasini bajaradi. Ammo harbiy faoliyatda askar hissiyotga berilib emas, balki vaziyatni tahlil qilgan holda harakat qilishi kerak. Bu esa maxsus ruhiy tayyorgarlik orqali shakllanadi.

Harbiy psixologiyada insonning ichki ruhiy holati jangovar samaradorlikning muhim omili sifatida qaraladi. Jangovar sharoitlarda insonning fikrlashi, hissiyoti va irodasi sinovdan o'tadi. Shuning uchun askar avvalo ruhiy jihatdan jangga tayyor bo'lishi lozim.

Ruhiy tayyorgarlik quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Stressga chidamlilik. Stress organizmning bosim va xavfga nisbatan reaksiyasidir. Harbiy xizmatchi yuqori stress sharoitida ham o'z vazifasini bajarishi kerak. Stressga chidamlilik muntazam mashg'ulotlar, murakkab vaziyatlarni modellashirish va psixologik treninglar orqali shakllantiriladi.

"Sokinlik – kuch belgisi" – ekstremal vaziyatlarda hissiyotlarni boshqarish. Ekstremal vaziyatlarda inson organizmida adrenalin miqdori oshadi. Natijada yurak urishi tezlashadi, qon bosimi ko'tariladi va hissiy

zo'riqish yuzaga keladi. Agar askar bu holatni nazorat qila olmasa, noto'g'ri qaror qabul qilishi mumkin.

Harbiy psixologiyada hissiy boshqaruv professional tayyorgarlikning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Sokinlik insonning ichki kuchini ifodalaydi. Sokin askar atrofdagi xavfni to'g'ri baholaydi, vaziyatni tahlil qiladi va aniq harakat qiladi.

"Harbiyda qo'rquv bo'ladimi?" – qo'rquvni yengish psixologiyasi.

Qo'rquv insonning tabiiy himoya reaksiyasi bo'lib, xavf haqida ogohlantiruvchi signal vazifasini bajaradi. Harbiy xizmatchida ham qo'rquv hissi mavjud bo'ladi. Biroq professional tayyorgarlik qo'rquvni nazorat qilish imkonini beradi.

Qo'rquvning asosiy manbalari: noma'lumlik, o'lim xavfi, javobgarlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va yaqinlarini yo'qotish xavfi.

Psixologik jihatdan tayyor askar qo'rquvni inkor qilmaydi, balki uni boshqaradi. Chunki qo'rquvni tan olish va nazorat qilish professional yetuklik belgisi hisoblanadi.

"G'alaba avval ongda boshlanadi" – muvaffaqiyat psixologiyasi.

Psixologiyada insonning fikrlash tarzi uning xatti-harakatlariga bevosita ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Agar askar o'zini mag'lub deb hisoblasa, uning harakati sustlashadi. Aksincha, ichki ishonch va maqsadga yo'naltirilgan tafakkur muvaffaqiyat ehtimolini oshiradi.

Muvaffaqiyatli harbiy xizmatchining psixologik sifatleri: o'ziga ishonch, qat'iyat, intizom, maqsad sari intilish, mas'uliyat, liderlik qobiliyati.

Motivatsiya insonning ichki energiyasi hisoblanadi. Harbiy xizmatda vatanparvarlik hissi motivatsiyaning asosiy manbalaridan biridir.

"Ruhiy immunitet" – zamonaviy tahdidlarga psixologik tayyorgarlik. Bugungi kunda urushlar nafaqat qurol bilan, balki axborot orqali ham olib borilmoqda. Axborot xurujlari inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ruhiy immunitet – shaxsning psixologik bosim va manipulyatsiyalarga qarshi barqarorligi demak.

Ruhiy immunitetni shakllantiruvchi omillar: tanqidiy fikrlash, ma'naviy qadriyatlar, psixologik savodxonlik, axborotni tahlil qilish qobiliyati, o'ziga ishonch.

Harbiy xizmatchi yolg'on axborotlarni farqlay olishi va ruhiy bosimga berilmasligi kerak. Bu zamonaviy harbiy xavfsizlikning muhim qismidir.

Harbiy jamoada psixologik muhitning o'rni. Harbiy jamoada sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lsa, askarlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik kuchayadi. Bu, o'z navbatida, jangovar samaradorlikni oshiradi.

Sog'lom psixologik muhitning asosiy omillari: o'zaro hurmat, intizom, liderning adolatli munosabati, jamoaviy birdamlik, psixologik qo'llab-quvvatlash.

Jamoaviy ruh kuchli bo'lgan harbiy bo'linmalarda stress va vahima kamroq kuzatiladi.

Harbiy xizmatda muvaffaqiyat faqat jismoniy kuch bilan emas, balki insonning ruhiy tayyorgarligi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy harbiy faoliyat sharoitida stressga chidamlilik, hissiy boshqaruv, qo'rquvni nazorat qilish, tezkor fikrlash va ruhiy tiklanish ko'nikmalari harbiy xizmatchining professional mahoratini belgilovchi muhim omillarga aylangan.


"Jang maydonidan oldin ong yutadi" degan tamoyil inson ruhiyatining harbiy faoliyatdagi o'rmini yaqqol ifodalaydi. Chunki g'alaba avvalo inson ongida shakllanadi. Ruhiy jihatdan tayyor, o'ziga ishongan va psixologik barqaror askar har qanday murakkab vaziyatda samarali harakat qila oladi.

Shu sababli harbiy ta'lim tizimida psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish, stressga chidamlilikni oshirish va ruhiy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Kapitan
O'tkir ASHUROV,
Navoiy garnizonidagi harbiy
qism harbiy psixologi**

QALBLARDA MANGU

barhayot qahramon



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

1942-yilning kuz oylari... Urush boshlanganiga ham qariyb bir yildan oshdi. Barcha birdek tinimsiz mehnatda. Ammo vaziyat og'ir. Dushman hamon oldinga qarab intilmoqda...

Kuz. Qishloqlarda yig'im-terim ishlari avjida. Shu orada Yoyilmaning Qal'achasidan Log'onga kelin keldi. To'y sharoit va davr taqozosi bilan odmigina bo'lib o'tdi. Qambarali yosh bo'lishiga qaramay, chinakamiga oilaboshiga aylandi. Endi u yanayam ko'proq mehnat qilishi kerak. Uyda ayoli, onasi, bo'y-basti o'zi bilan salkam tenglashib qolgan ukasi bor. Uni ham uyli-joyli qilish kerak.

Biroq birgina xat uning hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. Oila qurganiga hali qirq kun ham to'lmagan Qambaraliga urushga ketishi haqidagi "chaqiruv qog'ozi" keladi. Oilasi, sevikli yori bilan xayrlashib, frontga jo'naydi. Qisqa muddatli harbiy tayyorgarlikdan so'ng Qambarali Jo'rayev 222-"Smolensk – Brandenburg" o'qchi diviziya tarkibida jang maydonlarida ishtirok etishni boshlaydi. Diviziya tarkibida yosh askar to Brandenburgga qadar masofani bosib o'tdi.

Bu yo'lda qanchadan qancha safdoshlari, do'stlari halok bo'lmadi deysiz. Yolg'izgina ukasi Ambarali ham o'zidan keyin urushga safarbar etilib, 81-o'qchi diviziyasining 519-o'qchi polkida oddiy askar sifatida 1944-yilgacha jang qiladi. Eng achinarlisi, hali oila qurishga ham, uyda uni kutayotgan oilasining diydoriga

ham to'ymagan Ambaralining umri janggohlarda yakun topadi. Uning qayerga dafn etilgani esa oilasi uchun butun umrga noma'lum bo'lib qoladi.

Bu paytga kelib, Qambarali anchayin ulg'aygan, tajribasi oshib, bemaol belgilangan vazifalarni ortig'i bilan bajarishni boshlagan edi. Shu tufayli ham uni o'z polki bir necha bor mukofotlaydi. Ular orasida "Jasorati uchun" medali ayniqsa alohida qiymatga ega.

Ushbu mukofot Qambarali Jo'rayevning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shdi: halok bo'lishga yoki taslim bo'lishga aslo haqqi yo'qligini doimo eslatib turdi.

To'g'alaba degan so'zni eshitmaguncha to'xtamaslikka o'ziga va'da berdi. Shu orqali bevaqt halok bo'lgan ukasining ruhini shod qilgan, uning uchun ham fashistlardan o'ch olgan bo'lishini u juda yaxshi tushunardi.

Shunday qilib, 757-o'qchi polki bilan birgalikda Smolenskdan Belarusga, u yerdan Litva va Polshaga bordi. 1945-yilning fevralida polk Obra daryosini kesib o'tishga erishdi. Endi ular Germaniya ostonalarida edi.

Qambaralining sevinchi ichiga sig'masdi. Axir ular Germaniyada edi. Polk Berlin tomon yurmadi. Aksincha,

Brandenburg hududlaridagi dushman qo'shinlarini tor-mor keltirish va ularni taslim qilish bilan shug'ullandi. G'alabani ham shu yerlarda kutib olishdi.

1945-yil 9-iyunda 774-o'qchi polk Klaynbaren hududlari atrofida olib borayotgan janglarning birida Qambarali Jo'rayev daydi o'q tegishi oqibatida og'iz qismidan qattiq yaralanadi. Unga zudlik bilan dastlabki tez tibbiy yordam ko'rsatiladi. Biroq to'xtovsiz qon oqishi va og'ir jarohati tufayli 17-iyun kuni uni Sizran shahridagi 997-evakuatsion gospitalga olib kelishadi.

Shu yerda qiziq bir voqea yuz beradi. Uzoq vaqt behush yotgan, iyak qismi o'q tegishi oqibatida jiddiy jarohatlangan askarga avvalo qon quyish kerak bo'ladi. Ammo qon quyish... Bu masala shifokorlarni biroz o'ylantirib qo'yadi. Chunki askarning qon guruhi ikkinchi guruhga mansub edi. Shahardagi boshqa shifoxonalarda ham ikkinchi guruhga mansub qon topilmaydi. Shunda yoshgina bir hamshira qiz shifokor oldiga borib, askar uchun donor bo'lmoqchi ekanini aytadi. Shifokor hamshiraning tashabbusiga qoyil qolib, darhol ishga kirishadi. Qizning bu ishini kimdir yuksak vatanparvarlik desa, kimlardir kasbiga bo'lgan cheksiz muhabbat sifatida baholadi.

Ammo asl haqiqat boshqa tomonda edi. Kelishgan, baland bo'yli, jussador, ko'ksida orden va medallari yalt-yalt etib turgan bu yigitni hamshira qiz bir ko'rishdayoq yaxshi ko'rib qolgandi. Shu bois uning yashab qolishini hammadan ham shu qiz xohlagandi.

Qambarali ko'zini ochar ekan, avvalo, unga yana hayot baxsh etgan Yaratganga shukr qildi. Qolaversa, uning joniga ora kirgan qahramoni – hamshira qiz bilan ham tanishdi. Kun

sayin qahramonimiz yana quvvatga to'lib, sog'aya boshladi. Endi u tezroq Vatanga qaytishi kerak edi. Farg'onaga oshiqardi. Boisi uyda uni oilasi kutardi. Gohida turli o'y-fikrlar xayolini to'zg'itib yuborardi. Shunday kezlarda "Nahotki meni o'lgan deb allaqachon umidlarini uzishgan bo'lsa. Yoki... Yo'q! Hammasi joyida. Ular meni kutaypti. Umid uzganlaricha yo'q!" deya o'ziga o'zi taskin berardi. Bu kabi holatlar uni yanada tezroq uyga ketishga undardi. Shifokorlardan uyga javob berishlarini so'radi.

Kuz fasli. Ona tabiat o'zgacha chiroy ochmoqda. Muhimi, urush tugadi. Endi qolgani asta-asta yana o'z o'miga tushadi. Qambaraliga ham javob berishdi. U uyga ketar chog' uni hayotga qaytargan barcha-barchaga minnatdorlik bildirdi. Shu qatori hamshira qizga ham. Uni ham olib ketmoqchi bo'ldi, biroq qiz ko'nmadi. Qambaraliga sog'liq va baxt tilab, Sirzanda qoldi.

Yo'lga chiqarkan, urushga kelayotgan damlarini esladi. O'shanda ham kuz fasli edi. "Vo ajabo... Inson hech qachon oldindan nima bo'lishini bilmas ekan-da..." deganicha yo'lda davom etdi. Noyabr oyida qadrdon go'shasi – uyiga kirib keldi. Oila a'zolarining quvonchi cheksiz. Chunki ular Ambaralining bedarak yo'qolganidan keyin anchayin tushkunlikka tushib qolgan edi.

Ikki farzandidan hech bo'lmaganda birining qaytib kelishi sho'rlik onaizorga ancha dalda bo'ldi. Tinch va baxtli hayot boshlandi. Oila yana birga. Ularning baxtiga yo'lchi yulduz bo'lib Isroiljon, Davlatposhsho hamda Savlatposhsho dunyoga keldi.

Sirzanda davolanish mobaynida Qambarali mahalliy aholidan bog'dorchilik sirlarini o'rgangandi. Shularni endi qishloqda, o'z uyida qo'lladi. Ko'chatlar tez fursatda hosilga kirdi. Bu bog' ayniqsa bahorda dilni yayratib, ko'rgan kishiga yaxshi kayfiyat ulashardi.

Barchasi juda yaxshi edi. Biroq 1955-yil 12-aprelda urushdagi jarohati tufayli Qambarali bu foni dunyoni tark etadi. Taqdirni qarangki, uning ko'zni quvnatar bog'i ham shu yilning qish oyida qattiq sovuq tufayli nobud bo'ladi.

Qambarali Jo'rayev bog'i kabi qisqa, lekin juda go'zal hayot kechirdi. O'zidan yaxshi xotira, solih va soliha farzandlarni qoldirdi. Uning nomi hamisha e'zoz va ehtiromda, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Zero Vatan ishqida, uning ertasi, yorug' va baxtli kunlari uchun kurashgan insonlar borki, albatta ularning aziz nomlari, qilgan xizmatlari nafaqat oila a'zolari, balki yurtdoshlari qalbida ham mangu barhayot.

Abduhoshim MAXAMADOV,
Farg'ona davlat universiteti
magistranti

SEN UNI SEV

Kasalxonadan chiqishimga bir-ikki kun qolganida otam ko'rgani keldi. Uka-singillarimga "Otam bilmasin" deb tayinlagan edim. Kim aytgan bo'lsa? Eshitgan zahoti uyda o'tirolmay kelavergan, kech bo'lsa ham.

Otamni kuzatib, palataga kirsam, hamxonam boshini yostiqqa bosib olibdi. Xo'rsinig'ini eshitib, yoniga bordim.

– Mashhura, doktorni chaqiraymi? – so'radim xavotir olib.

– Yo'q, – dedi bo'g'iq ovozd.

Piyolaga suv quyib tutdim. Majburlab ichirdim. Yig'labdi. Biroz o'ziga kelib, jilmaydi. Yillar go'zalligiga putur yetkaza olmagan dilbar ayol. Negadir kimsa yo'qlab kelmaydi. Farzandsizmikan, degan xayolga bordim.

– Otangizni ko'rib, otamni esladim, – dedi siniqqina iljayib.

Ayol derazaga yaqin borib, qorong'ilikka tikilib qoldi. Bechoragina, otasi olamdan o'tgan ekan-da. Yoniga borib, tasalli berdim:

– Mashhura, bandalik ekan, birov yosh, birov yoshini yashab, oshini oshab, bu dunyodan o'tar ekan. Otangizning joyi jannatda bo'lsin.

Bu gapni eshitib menga shunaqa hayrat bilan boqdiki, g'alati bo'lib ketdim. Nimanidir noto'g'ri gapirdimov.

– Fazilat, otam o'lmagan...

– Voyyy, Mashhura, kechiring, otamni esladim, deganingizga... ming bor uzr, a, – dedim ich-ichimdan xijolat tortib.

– Otam hayot, – dedi o'ychanlik bilan, – umri uzoq bo'lsin. Ammo... Necha o'n yillar o'tdi. Yoshlikda qilgan xatomo... hamon meni ta'qib qiladi. Ba'zan kechirgandek tuyuladi, menga kulib boqqanida, huv o'sha, yoshlikdagidek mehmi his qilaman. Bu qandaydir lahzalarda yuz beradi keyin yana o'sha-o'sha sovuqlik.

– Siqilmang, kasalingiz yana zo'rayadi, – dedim unga achinib.

Ayol qandaydir so'nib qoldi. Shu holida ham uzun-uzun kipriklari yuziga soya tashlab, to'lin oy kabi sirli ko'rindirdi.

– U meni kechirmadi, kechirmaydi, bilaman, – shunday deb karavotim yonidagi stulga kelib o'tirdi. – Men qilgan ishni kechirib bo'lmaydi. Birgina xatoning azobi juda uzun keldi. Uzoq kuttirmay keldi...

Ko'zlari jiqqa yosh. Ertalab doktoring oldidan ham shu holda chiqqan edi. O'sha lahzada ko'zlari yosh bo'lsa ham, qadariga rozilik bor edi. Hozir esa shu qadar g'amgin ediki, yorilgisi, dardlarini to'kib-solgisi kelayotganini his qildim. Qo'llaridan tutdim: – Tun juda uzoq, ikkimiz yolg'izimiz.

...Universitetga o'qishga kirdim. Otamning xursandligini ko'rsangiz. Hammaga maqtanib chiqibdi. Yosh edim, chiroyli kiyinishni, o'yin-kulgini yoqtirar edim. Bir kuni o'qishdan kelsam, hamxonalarim chiroyli kofta kiyib ko'rishyapti. Juda havasim keldi. Bizdan ikki kurs yuqori o'qiydigan Munira sotib olibdi. U negadir menga g'ashlanib qaraydi, chiroyim haqida dugonalarim havaslanib gapirsa, ensasi qotayotganini yashirib ham o'tirmaydi. Bu qilg'i parvoyimga kelmaydi, past bo'yli, yuzlari dog'-dug'li, dimog'ida gapiradigan bu qiz menga raqib bo'lolmasligini yaxshi bilaman. Yonboshlaganicha menga mag'rurona qarashini ko'rib, koftaga havasim kelganini bekor bildirdim, deb o'yladim. Dam olish kuni do'konlarni aylanib, bundan ham yaxshirog'ini olaman, dedim ichimda. Ammo bunaqasi do'konlarda bo'lmas edi.

Qishki ta'til oldidan kursdoshim Zamiraning tug'ilgan kuniga yig'ildik. O'yin-kulgi orasida kimningdir menga qattiq tikilib turganini sezdim. Uni birinchi ko'rishim edi. Talaba bo'lsa, tanir edim. Kelishgan yigit ekan. Nigohlari meni ta'qib etayotgani negadir xush yoqdi. Musiqa tinay demas, avjiga chiqardi. Shu payt kimdir



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

yengimdan tortdi. Munira ekan. Qulog'im tagidan shang'illadi: "O'sha kun ko'rganing koftadan yana bir dona olib kelishibdi, xonamga yur, ko'rsataman". Darrov ortidan ergashdim, hamma o'yin-kulgi bilan band, birov e'tibor bergani yo'q. Munira eshikni ochib, avval meni kiritdi. Xonada boya meni kuzatib turgan yigit turibdi. Hayron qoldim. Shu yigit kofta sotar ekanmi? Meni ko'rib, ko'zlari xunuk yiltillab ketdi. Ortimga tislangan edim, chaqqonlik bilan o'tib, eshikni qulfladi... "Muniraaa!" deya jonholatda baqirdim. Qamalib qolgan qush kabi o'zimni har tomonga urdim, devorlarni mushtlab, yordamga chaqirdim. Qo'shiq, kulgil, shovqin orasida yo'q bo'lib ketdim. Yovvoyi kuch qarshisida ojiz qolgan edim. Boshim stol qirrasiga urilganida ko'zimdan o't chiqqanday bo'ldi... O'zimga kelganimda... jimjitlik. Qayerdaman? Ko'zim unga tushdi, maykachan, deraza raxiga tirsagini tirab, bamaylixotir sigaret tutatib turardi. Og'riq, alam, sharmandalikdan tishlarim qisirlab, ingrab yubordim. Koshki, bu qo'rqinchli bir tush bo'lsa-yu... afsus, afsus...

– Sizni tashlab qo'ymayman, uylanaman, – dedi u xotirjam. – To'y qilishga imkonim yo'q. Istasangiz, ertagayoq nikohni rasmiylashtiramiz. Shikoyat qilsangiz, o'zingiz sharmanda bo'lasiz, sizni hech kim yonimga zo'rlab olib kelmadi, o'zingiz keldingiz.

Men, men emas edim. Ruhsiz, hissiz, mahv etilgan. Itdan ham xarob holda gandaraklab, xonamga yo'l oldim. Hamxonam uyqusirab eshik ochdi: "Qayerlarda yuribsan?" deb javob ham kutmay, joyiga borib yotdi. Yuvinishga kirdim. Kiyimlarimni ham yechmay suv tagida turaverdim, turaverdim... Ammo meni endi hech qanaqa suv poklay olmas edi.

Ta'til ham tatimadi. Dardimni hech kimga ayta olmadim. Avvalgi quvnoq Mashhuradan asar qolmagan, ichimda "Ona, opa, ezilib ketdim, holimni so'ranglar..." degan sassiz faryod bor. Ketadigan kunim onamga yorilgim keldi: "Qaytgim kelmayapti..." "Otangga ayt, menga farqi yo'q, so'vchilar kelaverib, ostonamizni teshib yubordi. Ma'qul kelganiga, rozilik beramiz, sen ham o'qish deb olislarda yurmaysan", dedi. Onam... parishonligimni sezmadimi? Nega ahvolim bilan qiziqmadi? Senga nima bo'lyapti, deb bir og'iz so'rasa, xato ustiga xato qilmasmidim? U esa meni erga bermoqchi bo'ldi. O'qishga ketdim. Ortga yo'l qolmadi. Hech narsa yoqmasdi, o'qishga sudralgudek borib kelardim. Ishtaham yo'qoldi. Bir kuni darsda hushimdan ketib qoldim. O'zimga kelganimda tepamda turgan shifokor jilmayib tabrikladi. Muzlab qoldim. Hamxonam Jamila ko'rgani keldi. Yig'lab-siqtab bo'lgan voqeani aytib berdim. Choram yo'qligini, uning taklifiga ko'nishga majburligimni aytdim.

Majbur emasligimni harchand tushuntirsa-da, sharmandalikdan qutulishning yagona yo'li shu deb bildim.

Taklifga rozi bo'lgan kunim lash-lushlarimni yig'ib, yo'lga hozirlik ko'rishimni aytdi. Ortidan ergashdim. Uyga, opamga vaziyatni bildirib, xat yozib yubordim. Namangandagi manzilni ko'rsatdim.

Holatimdan xabar topgan otasi avvaliga esankirab qoldi, uni rosa koyidi. Pinagi

buzilmadi. Besh-o'n qariya chaqirilib, mahallaga ma'lum qilindi. Beva ayolchalik izzat ko'rmadim. O'zim pishirgan achchiq osh...

Bir kuni qaynotam o'g'li uyda yo'qligida meni biroz ko'ngli ochilsin deb, bozor-o'char qilgani olib bordi. Bozorga kirish joyida taqqa to'xtab qoldim. Qarshimda pakana Munira kosonsoylik kursdoshi bilan og'zi qulog'ida gaplashib turardi. O'sha voqeadan keyin ko'rinmay ketgan edi. G'azabdan ko'zlarim o'tdek yondi, meni ko'rib dovdiradi, qo'limni musht qilib yuziga urdim. Yiqildi. Yovvoyi kuch bilan tepa boshladim. Qaynotam bir chetda hang-mang bo'lib qoldi. Kimdir qo'limdan mahkam tutib, chetga tortdi. Siltanib Muniraga qarab yurmoqchi edim "Mashhura!" degan ovozdin o'zimga keldim. Qo'limdan tutgan odam kosonsoylik yigit edi. "Kechiring, dedi tishlari qisilib, men hammasini tushundim. Undan qayta-qayta so'rganman, rostmi, siz aralashganmisiz, deb. Mish-mishlarga ishonmang, derdi..." Qo'limni tortib oldim. Chakkasi qonab, tuproqqa belanib yotgan qizga qarab tupurdim. Ust-boshini qoqib, o'rnidan turdi, yigitga qarab yurgan edi, u ters o'girilib ketib qoldi. Qiz dumini qisib qochgan itdek o'zini duch kelgan tomonga urib, mendan uzoqlashdi. Negadir yengil tortmadim. Men o'sha-o'sha ota-onasi yuziga oyoq bosib, nomard birovning etagini tutib ketgan badbaxt Mashhura edim. Alam va xo'rlikdan qaltirab turganimda qaynotam yonimga kelib, "qizim..." degan edi, yig'lab yubordim. Yolg'iz edim, yonimda bir mehribonim yo'q. Erimning onasi yo'q, opalari meni odam o'mida ko'rmas, kamsitar edi. Birgina shu qariya meni tushunar, avaylardi. O'g'lining qilgan ishidan nomus qilar, shuning barobarida unga bir so'z deyshiga ham ojiz edi.

Qizim tug'ildi. Ko'zim yo'lda. Meni kechirisharmikan? Farg'onadan biortasi yo'qlab kelarmikan? Hech kim kelmadi. Hatto opam ham. Sog'inchdan o'rtanardim. Holimni sezib yurgan qaynotam o'g'liga: "Qilg'iliqni qilding, endi bolangni olib, kelinning ota-onasini yo'qla, tiz cho'kib, tavba qil ikkoving ham. Zora, kechirsa" dedi. "Hech qayerga bormayman, borsa, ana, katta ko'cha", dedi o'g'li qo'rslilik bilan. Qariya lom-mim deyolmadi. Meni o'zi olib boradigan bo'ldi.

Otamning oldiga avval o'zi kirdi. Oppoq boshimni egib kirsam, balki yuragi yumshar, dedi umid bilan. Meni uzoqroq turadigan qo'shnining uyiga qo'yib, tayinladi: "Iltimos, kelganini hech kimga bildirmay turing". Yuragim potirlab turardi. Kechirarmikan? Haydab solsa-ya?! Haydasa ham haqli...

Qaynotam tez qaytdi. Boshi xam. Ikkinchi bir-birimizga qarab, jim qoldik. Shu payt opam halloslab yugurib keldi. Bag'riga otildim. Yig'lab ko'rishdik.

– Mashhura, ortingga qaytma, o'lsang ham otamizning oyoqlari ostida o'l. O'zing bor, oldiga. U seni o'ldirmaydi, bilasan. Elchi kerak emas. Elchi o'sha nomardga qo'shilib ketmasingdan avval kelsa, tuzuk edi.

Opamning gapidan qaynotamning boshi battar xam bo'ldi. Qo'limdagi go'dakni opamga uzatdim-da, yo'lga tushdim. Ohhh, bu yo'l... tavbaning yo'li... juda uzun edi.

Hovliga kirdim, onam yig'lab o'tiribdi, otam meni ko'rib, o'rnidan turmoqchidek bir harakat qildi-yu turmadi, yuzini o'girdi. O'zimni uning oyoqlariga tashladim, o'kirib yig'ladim. O'rnidan turib ketmoqchi edi, oyoqlarini quchoqlab oldim: "Otajon, meni so'ysangiz ham roziman, kechiring, men majbur edim... Kechiring... Kechirmasangiz, o'ldiring..." deb otamning yuziga boqdim... U yig'lardi, uni yer-u ko'kka ishonmagan badbaxt qizi yig'latdi. Hech qachon yig'lamagan erkak edi, u. Nomusini yetti bukib, begona yigit bilan qochib ketgan qizi yig'latdi. Yo'q, yo'q, men afvga munosib emasman... Qo'lini boshimga qo'yganida opam, ukalarim ham yig'lab yuborishdi. "Qizim, dedi titrab, men odam o'ldiradigan bo'lsam, o'sha, seni yo'ldan urgan haromxo'rni o'ldirar edim. Sen... Sen... Sen ham bolangdan ko'rgin!"

O'sha paytda men bu so'zlar dahshatini his qilmadim. Sog'inch, aybdorlik hissi, hayajondan boshim aylangan, ota uyim darvozasi men manglayi sho'rga ochilganidan mast edim. O'sha sovgigan oshdek turmushimga ham ko'ndim.

Erim kasallanib qoldi. Uzoq yotmadi.

Ikki oy ichida tamom bo'ldi. Kuymadim. Sevgisiz bir turmush edi. Besh yashar qizim bilan ota uyimga qaytdim. Qayta er qilmadim. Ukalarim uylanganidan keyin, katta shahardan bir xonali uy olib, ko'chib ketdim. Bozorda savdo qildim. Yillar kechdi. Bu orada qizim ham voyaga yetib qoldi. O'n yetti yosh. Ko'zga yaqin, quvnoq, ko'hlik. Bo'ylariga qarab quvonaman. Bir kuni bozordan horib qaytsam, qizim uyda yo'q. Avvaliga do'konga chiqqandir, deb o'yladim. Xavotir olmadim. Suv ichgani uzangan edim, idishga suyab qo'yilgan bir parcha qog'ozga ko'zim tushdi. Xat. Qizimning yozuvi. Yuragim bezovtalanib, qo'llarim titrab ko'z yugurtirdim. Qidirmasligimni, Jasuridan ayrilishni istamasligini, uni ko'pdan sevishini, uydagilari boshqaga unashirib qo'ymasligi uchun u bilan qochishga o'zi rozi bo'lganini yozibdi. Ko'ksimni changallab yiqildim... Qo'shnim ularni ko'rgan ekan, ortimdan kirib, tez yordam chaqiribdi.

Goh hud, gohida behudlik bilan vaqt o'tdi. Miyamni bir achchiq savol parmalagani parmalagan... Otam?! Bolangdan ko'rgin, degani shumi?! Bu nega bunchalar og'riqli dard? Otam... Bechora otam... bechora men... Bu tavqi la'nat mendan ketmas ekan... Qizimning "otashin" muhabbati uch yilga zo'rg'a yetdi. Bolasi bilan qaytib keldi. Bola kar-soqov. Pushaymon bo'lgandek biroz yurdi-da, bolasini menga tashlab, yana o'shaning orqasidan ketib qoldi. Hozir nabiram bilan birga yashaymiz. O'n yoshda shu qadar aqlliki, ko'zlarimga qarab, g'amimni sezadi, ipdek barmoqchalari bilan meni sevishini aytib, tasalli beradi. Meni hayotda ushlab turgan yagona inson shu bola. Ba'zan, otamni ko'rgim keladi, dardlarimni aytsam, to'kilsam, tavbalar qilsam, suyasam... Ammo yuzim qora. Kasallik ham meni yengib boryapti...

Shularni gapirib, jim bo'lib qoldi. Charchagan edi. Tong ham oqarib qoldi. Ojiz edim. Unga qanday tasalli berishni bilmas edim. Og'ir o'ylar bilan uxlab qolibman. Odatdagidan kechroq turdim. Mashhura joyida yo'q. Apil-tapil yuvinib, uni qidira boshladim. Kutish zalidan uning hayajonli ovozi eshitib, shu tomonga yurdim. U keksa bir odamning ko'ksiga boshini qo'yib olibdi. Menga ko'zi tushib, jilmaydi. "Otam keldi", dedi mehr bilan. Mashhura uchun sevinib salomlashdim. Qariyaning ajinli yuzlarida ko'zyoshlar iz solgan.

– Fazilat, mana bu xatni o'qing, shu xatni o'qigandan keyin o'lib bo'ladimi, – dedi u ko'zyoshlari yuzini yuvib, otasining shapaloqdek telefonini uzatar ekan.


“...Bobo, oyim og'ir kasal. U o'lmasin. Sen rostdan ham uni sevmaysanmi? U har doim shunday deydi. Bobo, iltimos, sen uni sev! U judayam yaxshi oyi...”

Seving, sevilig! Umr juda qisqa, sevgi uni uzaytiradi.

Inobat NODIRSHOH



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



HAYBATLI TEPALIKLAR SIRI

Odam bolasi yoshi ulg'aygan sari tez-tez o'tmishga qaraydigan, oilasi, urug'-aymog'i, qishlog'i, yurti haqida ko'proq o'ylaydigan bo'lib qolar ekan. Ba'zan gurunglarda kimdir gapni aylantirib: "Bobomning chopag'on otlari ko'p bo'lgan yoki suruv-suruv qo'ylari bo'lgan", deb maqtanib qoladi. Gohida ichingda unga havasing ham keladi. Xo'sh, mening ajdodlarim kim bo'lgan, qanday yashagan? – deb o'z-o'zingga savol berasan. Bu savol tinchingni buzadi, kekxa kishilardan fursat topib surishtirasan, javob topsang, eshitganlaringni bolalaring, nabiralaringga bot-bot so'zlab berasan.

Ammo javob topmasangiz, nima qilasiz? Maktabda o'qiydigan nabirangizning tarix kitobini titkilab ko'rasiz. Qadimgi Rim, Yunon, Misr tarixiga oid rangli suratlarni hayrat bilan tomosha qilib, tarixiy ma'lumotlarni o'qib chiqasiz. Ammo negadir qoniqmaydiz, o'zingiz istagan narsani topolmaydiz...

Qishloqning tog' tarafida, Samarqand – G'uzor katta avto yo'lining Qashqadaryo ko'prigiga yaqinroq joyda baland tepalik bor. U menga bolalikdan tanish, necha bor qo'y boqib yurganimizda ustiga chiqib o'ynaganmiz. Lekin bu qanday tepalik, u qadimda nima bo'lgan, unda kimlardir yashaganmi? Bilmasdik. Ajdodlarimiz esa tepaliklarga Qiztepa, Jangaltepa, Bo'ritepa, Naymansaroytepa deb ajabtovur nomlar qo'yishgan. O'tgan asrning 90-yillari edi. Vohamiz ijodkorlari bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng oqsoqol yozuvchi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmadning "Turna qo'ngan qirlarda" maqolasida "Qashqadaryo shunday makonki, uning qirlari, tepaliklarida yonboshlab olib, qissa va romanlar yozsa bo'ladi", degan satrlarni o'qiganman. Bu bilan ko'pni ko'rgan va bilgan adib vohamizning hali o'rganilmagan o'tmishiga ishora qilgandir, balki.

Rahmatli Bibisora ammam aytardi:

– Qiziltepada qirq malak yashiringan. Yarim kechada tuyruk

ochilib, qizlar tashqariga chiqadi. Gulxan yoqib o'yin-kulgi qilishadi, tong oqarishi bilan yana makonlariga berkinib olishadi. Ularni ko'rgan odam jinni yo devona bo'ladi.

Atoqli tarixchi olim Poyon Ravshanov Qiziltepa haqida yozar ekan, bu tepalikda topilgan ashyolar orasida ayollarning o'sma qo'yadigan mitti idishlari va boshqa pardoz buyumlari borligini ta'kidlagan. Bir necha yil tepalik atrofida qo'y boqib cho'ponlik qilgan Ravshan bobo esa u yerda olov yolg'inini ko'rgani va ovozlari eshitganini hamon gurunglarda hayratlanib so'zlab yuradi.

– Elliginchi yillarning oxiri edi. Maktabni tugatgandim. Chimqo'rg'on suv ombori qurilishi tufayli qishlog'imiz aholisini Jonbo'zsoyga ko'chirish boshlandi. Tepaliklarni va boshqa tarixiy joylarni o'rganish uchun poytaxtdan shoshilinch ravishda qadimshunos olimlar kelib, ishga kirishishdi. Qazish ishlarida men ham ikki yil ishladim. Guruh rahbari Sergey Kabanov bilimdon, ajoyib inson edi. Eh, bu tepaliklardan yashik-yashik buyumlarni topib jo'natganmiz. Sopoldan yasalgan har-xil uy-ro'zg'or buyumlari, loydan yasalgan turli hajmdagi haykallar, qadimgi tangalar, qurol-aslahalar topganmiz. Jangaltepadan esa katta bir oilaning yaxshi saqlangan tobutlari chiqqandi, – deb so'zlaydi kekxa muallim Hasan Ravshanov.

Esaboy qishlog'ida yashovchi Said muallimning uyida mehmonda edik. Suhbatimiz aylanib, qishloq yaqinidagi Quloqli tepaga taqaldi.

Said muallim shunday dedi:

– Quloqlida sir-sinoat ko'p. Ko'pchilik bu yerdan yana yuz yil ham foydalansa bo'ladigan ko'zalar, xumlar topib, hamon ishlatib yurishibdi. Bundan tashqari, bu tepalik ichida kutubxona bo'lsa kerak. Chunki tepalikning daryoga qaragan tarafi qiyalik. Qushlarning in qo'yishi uchun bexavotir joy. Qushlar uyalaridan arabiyimi, forsiyimi yo boshqa harflarda bitilgan varaqlarni chiqarib tashlashadi. Ba'zi odamlar bu qog'ozlarni topib olib, "tillari o'tmagach" tashlab yuborgan.

Kunlarning birida manbashunos olim Abdusattor Jumanazarning

2007-yilda chop etilgan "Nasaf" nomli kitobi qo'limga tushib qoldi. Avvalo, muallifning ilmiy ma'lumotlarni o'ziga xos sodda uslubda, ommabop qilib yozgani diqqatimni tortdi.

Kitobdagi men uchun eng qiziqarli joyi "Niyoza" deb nomlangan bobi bo'ldi. U biz uchun bolalikdan qadrdonimiz o'sha Quloqlitepa tarixi ekan. Bu qutlug' maskan Nasaf viloyatining shimoli-sharqiy chegarasida joylashgan. Daryoning shundoqqina narigi qirg'og'idan Kesh viloyati hududi boshlanarkan. Kitobda o'rta asrlarda bu joydan bir nechta olim va adiblar yetishib chiqqani aytilib, ular haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Muallif tadqiqotida birlamchi qo'lyozma manbalardan Amir Temur bobomiz Xoja Ilg'or yoki Zanjirsoyda emas, balki Niyoza mavzesida tug'ilgani haqida ma'lumot topadi va uni o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi. Niyoza haqida Istaxriy (X), Najmiddin Umar an-Nasafiy (XII), Abdulkarim as-Sam'oni (XII), Yoqut al-Hamaviylar (XII–XIII) ma'lumotlarini beradi. Ulardan so'ng Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Muiniddin Natanziyning "Muntaxab-at-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlarida sobiqqiron Amir Temurning Niyozada (*Ajig'i*) kechgan tarixi batafsil yoritilib, tahlil qilinadi. Bu asarlar orasida Nizomiddin Shomiy asari sobiqqiron bobomiz ko'rsatmasi bilan yozilgan. Natanziy asarini temuriy Iskandar Mirzo buyurtmasi bilan yozishga kirishadi. Kitob yozib tugatilganda u vafot etgan edi va asar sobiqqiron Amir Temurning kichik o'g'li Shohrux Mirzoga tuhfa qilinib, uning nazaridan o'tkaziladi. Sharafiddin Ali Yazdiy asarini Shohrux Mirzoning mashhur o'g'li Ibrohim Sulton huzurida yozgan.

– Ammo – deydi Abdusattor Jumanazar, – Xoja Ilg'or qishlog'i nomi bu qimmatli manbalarning birortasida uchramaydi.

Bu kitoblarning barchasi sobiqqironning o'zi, o'g'li va nabiralari nazaridan o'tkazilib yozilgan. Ulardagi ma'lumotlar birlamchi va ishonchlidir.

Hanuzgacha darsliklarimizda qayta-qayta zikr etilayotgan Xoja Ilg'or qishlog'i nomi qayerdan paydo

- Dada, anovi qanday tepalik?
- Bilmadim, bolam...
- Axir nega bilmaysiz?

(Suhbatdan).

bo'ldi? U faqat XV asr o'rtalarida yozilgan Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asarida qayd etilgan. Bu asar Shomiy asaridan 34, Natanziy asaridan 25, Ali Yazdiy asaridan 13 yil keyin yozilgan. Ammo Arabshoh asarining biror o'rinda Niyoza yoki uning turkiydagi ikkinchi nomi – Ajig'i zikr etilmagan.

Buni qarangki, biz yuqorida tilga olgan Quloqlitepa aslida qadim o'tmishda **Niyoza** (*forscha*) va **Ajig'i** (*turkiycha*) nomlari bilan mashhur bo'lgan tarixiy joy ekan. Abdusattor Jumanazarning "Nasaf" kitobida bu joyning topilishi voqealari juda qiziqarli tarzda batafsil hikoya qilinib, unga oid tarixiy manbalar chuqur tahlil etilgan. Niyozaga bag'ishlangan maqola: "Nihoyat, Hemenguey balig'i qo'lga tushdi", satrlari bilan yakunlanadi. Bu joy shu tariqa **2006-yili** ilmiy asoslarda tom ma'noda kashf qilinadi va omma e'tiboriga yetkaziladi. Chunki shu paytga qadar Niyoza qishlog'i olimlar tomonidan Yakkabog'da yo unga yaqin hududlardan birida joylashgani taxmin qilinardi, ko'rsatilardi. Niyozaning topilishi va yuzaga kelgan yangi vaziyat sobiqqiron Amir Temur tarjimayi holi hamda tarixiga ham qaytadan jiddiy nazar tashlashni talab etayotir. Nahotki, bir marhum bechoraning qabrtoshini Sobiqqiron ko'tarib mashq qilgan "polvontosh"ga aylantirish va bironlarni shu kabi yana har xil johilona o'trikarga ishonitirishga urinishda davom etaveramiz.

Hozir Niyoza qal'asi qoldig'ini mahalliy xalq "Quloqlitepa" nomi bilan ataydi. U yer sathidan taxminan, 25–30 metr baland, 6–7 gektar maydonni egallagan.

Ha, yurtimizning istalgan joyiga borsangiz, albatta tariximizga daxldor joylarga duch kelasiz. Bu makonlarning ko'pchiligi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Tadqiqotlar olib borilgan makonlardan esa nimalar topilgan, ularning tarixiy ahamiyati qancha, bundan ko'pchilik bexabar. Bu joylarni o'rgangan olimlarning asarlari esa juda kam nusxada chop etilgan va tor doirada tarqatilgan.

Shu o'rinda bir mulohaza yuritsak. Yurtimiz tarixiga oid ommabop kitoblar nega maktab va oliy o'quv yurtlarida o'rganilmaydi. Agar shunday xayrli ishlar amalga oshirilsa, yoshlar tariximizni yaxshiroq bilgan va Ona Vatanimizga mehr-muhabbati, qiziqishi yanada ortishi tayin.

Misrliklar ajdodlari yaratgan ehromlari bilan necha yuz yillardan buyon dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda. Bizning ajdodlarimiz bunyod etgan haybatli tepaliklar ham o'zing sir-sinoati va uzoq kechmishi bilan Misr ehromlaridan aslo kam emas.

O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

CHO'MILISH VA QUTQARISH QOIDALARINI BILASIZMI?



Har bir yil faslining o'ziga xos jozibasi va afzalliklari bo'lgani singari, yozning ham quyoshli tarovati boshqachadir. Yozning jazirama kunlarida ko'pchilik fuqarolar mehnat ta'tilida salqin joylarga borishni, oilasi va do'stlar davrasida dam olishni hamda suv havzalarida cho'milishni xohlaydi. Albatta, suv havzalarida cho'milishning o'ziga yarasha tartib-qoidalar mavjud bo'lib, agarda ularga rioya qilinmasa, turli ko'ngilsiz hodisa va fojialarga olib kelishi ham mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har yili 310 mingdan ortiq kishi suv havzalarida cho'kib ketishi oqibatida halok bo'lishi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulotdda vaziyatlar vazirligining Kun.uz saytiga bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yoz mavsumida yurtimizda 142 nafar fuqaro cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisa tufayli vafot etgan. Halok bo'lganlarning deyarli 45-50 foizini maktab yoshidagi bolalar va voyaga yetmagan o'smirlar tashkil qilgan. Bunga asosiy sabab sifatida yozgi ta'til vaqtida bolalarning ota-onalar nazoratidan chetda qolganliklari bo'lgan.

Bunday ko'ngilsiz hodisalar afsuski, o'tgan yillar davomida harbiy xizmatchilar va ularning oila-a'zolari orasida ham, shuningdek cho'kayotgan yaqinlarini qutqarish vaqtida ham kuzatilgan.

Cho'milish uchun birinchi navbatda maxsus jihozlangan joylarda kunning

quyoshli va shamol bo'lmagan paytida, havo harorati +20-25°C, suv harorati esa +17-19°C dan past bo'lmagan sharoitlarda cho'milish **tavsiya etiladi**.

Qorin och bo'lganda, charchaganda, chanqagan paytda, yaqin kunlarda biror kasallikdan davolanib chiqqanda, spirtli ichimlik iste'mol qilinganda, yolg'iz bo'lganda va jazirama oftob ostida cho'milish maqsadga **muvofig emas**.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, suvda cho'kishning eng ko'p uchraydigan sabablari quyidagilardan iborat:

ehtiyotsizlik va cho'milish qoidalarini buzish – belgilanmagan, jihozlanmagan yoki taqiqlangan ochiq suv havzalarida cho'milish;

● **spirtli ichimliklar ta'sirida, mast holda suvga tushish** – harakatlar mutanosibligini yo'qotishga va xavfni to'g'ri baholamaslikka olib keladi;

● **salomatlik bilan bog'liq muammolar** – suvda suzayotganda

to'satdan yurak xuruji yuz berishi yoki oyoq mushaklarining tortishib qolishi;

● **suzish ko'nikmasining yo'qligi (suzishni bilmaslik)** – chuqurlikni bilmaslik yoki suv oqimlariga qarshi suza olmaslik;

● **qo'rquv va vahima** – suv yuzasida tura olmaslik yoki to'satdan suv yutib yuborish tufayli nafas yo'llarining spazmga uchrashi yoki bekilib qolishi.

Oyoq mushaklarining tortishib qolishi sabablari: sovuq suv ta'sirida oyoq mushaklarining keskin qisqarishi, organizmdagi suvsizlanish, kalsiy, magniy yoki kaliy yetishmasligi, haddan tashqari charchash alomatlari bo'lganda cho'milish, suzishdan oldin mushaklarni qizdirmaslik, uzoq vaqt bir xil harakatda suzish.

Yuzaga kelgan shunday vaziyatlarda nima qilish kerak?

Birinchi navbatda, vahimaga tushmaslik, chalangacha yotgan holda suvda suzib turishga harakat qilish, tortishgan mushakni sekin cho'zish, imkon darajasida qirg'oqqa yaqinlashish va yordam chaqirish.

Cho'kishning oldini olish uchun: mast holda suvga tushmaslik, sovuq suvga asta-sekinlik bilan tushib, badanni ko'niktirish, suzishdan oldin yengil badantarbiya qilish, mushaklarni qizdirib olish, juda to'yib ovqatlanmagan so'ng yoki o'ta och holatda cho'milmaslik, yurak kasalligi mavjud bo'lsa, yolg'iz cho'milmaslik.

Cho'kayotgan odamni qutqarish va suvdan chiqarish texnikasi.

Cho'kayotgan odamda odatda quyidagi belgilar kuzatiladi: cho'kayotgan odamning boshi suv sathidan pastga tushib qoladi, vaqti-vaqti bilan nafas olish uchun ko'tariladi, cho'kayotgan odam xalaqit berayotgan sochlarini to'g'rilay olmaydi, bir joydan boshqa joyga suzib ketolmaydi, bir nuqtaga qarab qoladi, o'sha paytda ko'z nigohi "shishadek" bo'lib qoladi, orqaga tayanish yoki boshini tashlashga harakat qilib, qiyinchilik bilan nafas oladi, uning rangi oqarib ketadi, haqiqiy cho'kishda – og'iz va burun atrofida ko'pik bo'ladi.

Cho'kayotgan odamni qutqarish choralari. Eng avvalo, cho'kayotgan kishini suvga tushmasdan qutqarish mumkinligini teran baholab ko'rish kerak. Yaqin atrofda uzunroq tayoq, arqon, qutqaruv balloni yoki havo to'ldirilgan boshqa jism mavjudligiga nazar soling. Atrofdagilarni yordamga chaqiring – bunday holda qahramonlik qilish ketmaydi.

Cho'kayotgan odamga yordam berishning eng katta qiyinchiligi shundaki, cho'kuvchi odam qutqaruvchiga reflektor ravishda tirmashib oladi va qutqaruvchi yetarlicha tajribaga ega bo'lmasa, cho'kuvchi ikkisini ham suv tubiga tortib ketishi mumkin.

Bunday harakatlar ixtiyorsiz ravishda bo'ladi, shuning uchun siz bir necha oddiy qoidaga amal qilishingiz kerak: cho'kayotgan

odamga yordam berish uchun uning orqa tomonidan suzib kelish kerak, ya'ni u qutqaruvchini ko'rmasligi lozim. Shundan so'ng cho'kayotganni suvdan chiqarishning turli yo'llarini qo'llash kerak, cho'kayotgan odamni chalangacha yotqizgan holda uni qo'ltig'idan ushlab, oyoqlarni harakatlantirib o'zi bilan tortish. Agar cho'kayotgan odam sizni mahkam ushlab olishga harakat qilsa, chuqur nafas olgan holda suv ostiga sho'ng'ish kerak. Tirmashib olgan cho'kayotgan odamning qo'llarini majburlab ochishga urinmaslik kerak – vahima jabrlanuvchiga qo'shimcha kuch beradi, kurashish esa yanada ko'proq vaqt oladi.

Cho'kkan odamga shoshilinch yordam ko'rsatish. Yutilgan suvni chiqarib tashlash. Eng avvalo, o'pkadagi suvni chiqarib tashlash kerak. Buning uchun cho'kkan odamni tizza ustiga qorni bilan yotqizib, tanasini bukilgan holatga keltirish va bir vaqtning o'zida boshini ushlagan holda kuraklari orasini bosish kerak. Agar bu foyda bermasa, jabrlanuvchining og'ziga ikkita barmoqni tiqib, tilning ildiziga bosish kerak.

Sun'iy nafas berish. Tayyorgarligi bo'lmagan qutqaruvchi uchun sun'iy nafas berishning eng oddiy usuli "og'izdan og'izga" nafas berish hisoblanadi. Buning uchun jabrlanuvchi chalangacha qilib yotqiziladi, boshi orqaga tashlanib, burnini barmoqlar bilan yopib, og'ziga nafas beriladi. Refleks boshlanishi va jabrlanuvchi o'zi mustaqil nafas ola boshlamagunicha daqiqasiga 12-14 marotaba nafas berish amalga oshirilishi kerak. Agar oldin chiqib ketmagan suv chiqa boshlasa, jabrlanuvchining boshi yon tomonga burish, qarama-qarshi tomondagi yelkasini esa ko'tarib qo'yish kerak.

Jabrlanuvchiga bilvosita yurak massaji. Bunda qo'llarni ustma-ust qilib ko'krak qafasining pastki qismiga qo'yib, uni bir daqiqada 50-70 martalik chastota bilan ritmik tarzda bosish kerak. Agar yordam bir kishi tomonidan amalga oshirilsa, 5 ta bosishga bitta sun'iy nafas berish to'g'ri kelishi shart. Jabrlanuvchi nafas ola boshlaganda esa darhol tez yordam chaqirish lozim.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, yozning jazirama issiq kunlarida suv havzalarida cho'milish maroqli va inson organizmi uchun juda ham foydali bo'lishi bilan bir qatorda, cho'milish qoidalariga rioya qilmaslik, tiklab bo'lmaydigan fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Podpolkovnik N. BOLABOYEV,
podpolkovnik A. MEYLIYEV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Sharqiy harbiy okrug fakulteti
katta o'qituvchilari



"Galaktika kubogi – 2026"

Yuksak NATIJA



Rossiya Federatsiyasi Vladimir viloyatining Kirjach shahrida raketamodel bo'yicha "Galaktika kubogi – 2026" xalqaro sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Oltita davlat – Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonning 150 dan ortiq sportchilari ishtirok etgan ushbu nufuzli musobaqada "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat mamlakatimiz terma jamoasi 1 ta oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza medalni egallab, umumjamoa hisobida 2-o'rinni egalladi.

Jumladan, sportchilar tomonidan quyidagi natijalarga erishildi:

- 1. Aleksandra Bakiyeva:** "S-10" sinfida 1-o'rin (*Samarqand v.*);
- 2. Saidamir Erkinov:** "S-7" sinfida 2-o'rin (*Namangan v.*);
- 3. Rashit Koshayev:** "S-7" sinfida 3-o'rin (*Qoraqalpog'iston R.*).
O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti jamoasi ushbu sportchilarni samimiy muborakbod etib, kelgusida bundan-da yuksak yutuqlarga erishishlarini tilaydi.

Kemamodel



XALQARO MUSOBAQADA faxrli o'rin

Belarus Respublikasining Minsk shahrida sportning kemamodel turi bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

Beshta davlat – Rossiya, Belarus, Tojikiston, Qozog'iston va O'zbekistondan ishtirok etgan 50 dan ortiq sportchi o'zlari yasagan kemalar modellarning suvda harakatlanish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston

terma jamoasi munosib ishtirok etib, umumjamoa hisobida 3-o'rinni egalladi.

Birinchi o'rin Belarus sportchilariga, ikkinchi o'rin esa Rossiya jamoasiga nasib etdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti jamoasi ushbu sportchilarni samimiy muborakbod etib, kelgusida bundan-da yuksak yutuqlarga erishishlarini tilaydi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Tafakkur

Manfaat... kechir, seni lug'atimdan o'chirib tashlamoqqa majburman. Nazarimda, xato qilmayapman. Axir kirib bormagan sohang, bosh suqmagan darchang qolmadi. Darvoqe, yashashdan ma'ni-maqsadini sening ishtiroking-la belgilovchilar ham ko'payib ketgan. O'rnatilajak munosabatlar, o'tkazilajak suhbatlar, muloqotlar, gap-gashtaklardan ham murod sensan, aslida. Gapim rost, ishonaver. Hatto bekor yurgan, bo'sh-bayov inson ham allaqanday kutilmalar-la hayot kechiradi. Hech qursa, mendan uzoqroq tur, dedim-da...

XX asr modernistik adabiyotining yirik namoyandasi Frans Kafkaning "Evrilish" (*"Metamorphosis"*) qissasini o'qidim-u, o'zligimni unutdim. O'y-xayollar og'ushiga cho'mdim. Tafakkur qilmoqqa jazm etdim. Qilishim, bajarishim lozim bo'lgan ish-yumushlarni bir chetga surdim. Nahot, yillar mobaynida bir boshpana ostida umrguzaronlik qilganlaring, kezi kelganda, sendan yuz o'g'irsa? Foydang tegmagan zamon keraksiz buyumga aylansang?!

Chunonchi, Gregor kunni tunga, tunni kunga ulab ter to'kkani, mehnat qilgani, ishlagani, umuman, pul topgani uchungina oila a'zolari tomonidan qadrlanardi. Hasharotga aylangach, nima bo'ldi? Oradan mehr-oqibat ko'tarildi. Alaloqibat, Gregorning jamiyatda borligi ham bilinmay qoldi.

Moddiy ashyolar tarozida tortilishini, pul evaziga sotilishini bilardim. Lekin insonning qadr-qimmati keltirajak foydasi, nafi bilan o'lchanishi mumkinligini o'qib, yoqa ushladim.

Ammo, lekin, biroq ... atrof-javonibni kuzatgach, fikrim o'zgardi. Hayrat, ajablanish hissi o'rmini turnaqator, bir-birini takrorlamas iqrorar egallay boshladi. Falakning gardishi teskari aylanishini payqagandek bo'ldim.



Mayda va maishiy muammolar atrofimda girdikapalak bo'lgani boismi fahmlamabman. Hayot ma'lum bir ma'noda manfaatlar evaziga qurilgan ekan. Tasavvur qiling: ota-ona nima uchun bolasini bag'riga bosadi. Kam-ko'stsiz voyaga yetkazishga harakat qiladi. Belidan kuch ketganida, keksayganida muruvvat ko'rsatishi, birlamchi ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi uchun.

Yoxud nega turli xil diplom-u sertifikatlariga sohib chiqmoq yo'lida hormaymiz? Hech qanday imtiyoz, imkoniyat taqdim etilmagan taqdirda "IELTS" yoki "CEFR" olishga shunchalar qattiq bel bog'lagan bo'larmidik?! Albatta, yo'q. Oliyog'ga hujjat topshirishda tegishli fan tarmog'i bo'yicha maksimal ballni tuhfa etgani uchun. Qolaversa, jamiyatda til bilganga doim non topiladi: tarjimonlik qiladi va h.k.

Albatta, tanganing ikkinchi tomoni borligini inkor etmoqchi emasman. Zotan, har qanday munosabatni manfaat bilan bog'lash adolatdan emas. Boisi insonni inson qiladigan jihatlar foyda yoki naf bilangina o'lchanmaydi. Ona farzandini keksaligimda suyanchiq bo'lar, degan umidda katta qilishi, tarbiyalashi rost. Ammo volidayi muhtaramaning mehrida hisob-kitobdan ko'ra, muhabbat, kuyunchaklik ko'proq. Aks holda, nogiron tug'ilgan yoki og'ir xastalikka chalingan farzandlaridan voz kechgan ota-onalar kurrayi zaminga sig'may ketardi.

Alalxusus, chin do'stlik, samimiy muhabbat va vijdon kabi tushunchalar ham manfaat qolipiga sig'maydigandek. Shunday insonlar borki, og'ir kuningizda yoningizda turadi, sizdan hech qanday moddiy ko'mak kutmaydi. Yordam qo'lini cho'zadi. Ana o'sha vaqtda insoniyatga bo'lgan ishonchingiz, hurmatingiz yanada ortadi.

Biroq bugungi jamiyatimizda Gregorning qismati turfa xil ko'rinishlarda takrorlanayotgandek. Amal kursida o'tirsangiz, atrofingizda hozir-u nozir bo'lishadi. Kissangiz qappaysa, suhbatdoshingiz ham, maslahatchingiz ham ko'payadi. Biron-bir sabab bilan mavqeyingiz, imkoniyatingiz yoki boyligingizdan ayrilsangiz, kechagi tanishlaringizdan asar ham qolmaydi. Demak, Kafka yaratgan obraz faqat badiiy to'qima emas, balki zamonlar osha dolzarbligini yo'qotmay kelayotgan ijtimoiy haqiqat.

Fikri ojizimizcha, muammo manfaatning o'zida emas, balki uning insoniylikdan ustun qo'yilishida. Zero manfaat stimol vazifasini bajarishi mumkin. Biroq inson qadr-qimmatini belgilovchi mezonga aylanmasligi kerak. Negaki hozir foydasi tegib turgan inson erta-indin yo'qsil bo'lib qolishi hech gap emas. Agar qadriyatlarimiz ham manfaatga bog'lanib qolsa, Gregorning taqdiri boshimizga tushishi turgan gap.

O'ylab o'yimga yetolmadim. Afsus, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo'lgan ekansan. Kafka aytmoqchi, seni mutlaq haqiqatga aylantirib olgan kaslardan nafratlanaman. Eng maholi, manfaatlar to'qnashgan nuqtada to'g'ri yo'ldan odimlamoq, insoniylikni yodda tutmoq bo'lsa kerak, nazdimda...

Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'zJOKU talabasi

XAVFSIZLIKNING MUHIM OMILI



Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligida harbiy xizmatchilar ishtirokida "Yo'l harakati qoidalariga rioya qilishning shaxsiy tarkib xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati" mavzusida profilaktik davra suhbat tashkil etildi.

Tadbirning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilar o'rtasida yo'l harakati madaniyatini yuksaltirish, amaldagi yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish, transport vositalaridan foydalanishda mas'uliyatni oshirish hamda yo'l-transport hodisalarining oldini olishga qaratildi. Chunki zamonaviy sharoitda xavfsizlik faqat xizmat

joyida emas, kundalik hayotda ham ta'minlanishi zarur.

Davra suhbat davomida mutaxassislar tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzishning og'ir oqibatlari atroficha tushuntirildi. Ayniqsa, transport vositalarini boshqarishda tezlik me'yorlariga amal qilish, xavfsizlik kamaridan foydalanish, piyodalar

uchun belgilangan tartiblarga rioya etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, xizmat va shaxsiy avtomobillardan foydalanishda xavfsizlik talablariga amal qilish har bir harbiy xizmatchining shaxsiy mas'uliyati ekani ta'kidlandi. Amaliy misollar orqali yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari, ularning inson hayoti va salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri haqida fikr yuritildi.

Muhokamalar jarayonida bir muhim haqiqat yana bir bor tasdiqlandi: yo'l harakati

qoidalariga rioya qilish – bu faqat shaxsiy ehtiyot chorasi emas. Bu – umumiy xavfsizlik, xizmat intizomi va jamoaviy mas'uliyatning ajralmas qismi. Har bir kichik qoida ortida katta hayot turibdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan batafsil javob oldi. Shu bilan birga, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar va profilaktik chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashildi.

Mayor
Ahror SAFARALIYEV

Reklama

TANLOVDA ADASHMANG!



“Avtovoditel” xususiy korxonasiga qarashli avtomobil maktablari barcha xohlovchilarni avtomobil boshqarishning “A”, “B”, “BC”, “C”, “CE” hamda “D” toifalariga o'qishga taklif etadi. Mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bu yerda haydovchilar malakasini oshirish, amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda.



Xizmatlar litsenziyalangan.



Toshkent shahri Yashnobod tumani
“Vatandosh” MFY, Cho'lpon ko'chasi, 1-uy.



99 919-11-88, 88 333-11-88

Hurmatli tinglovchilar! Sizlarga qulaylik yaratish maqsadida bir qancha tumanlarda ham avtomaktab filiallari tashkil etilgan.

Strategik huquqiy hujjat

Bugungi kunda dunyoda davlatlarning qudrati faqat qurol-yarog' yoki armiyaning son jihatidan ustunligi bilan emas, balki davlat boshqaruvining halolligi, qonun ustuvorligi va korrupsiyadan xoli institutsional muhiti bilan ham baholanmoqda. Zamonaviy geosiyosiy raqobat sharoitida korrupsiya nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki davlat xavfsizligi, mudofaa qobiliyati va konstitutsiyaviy tuzum barqarorligiga tahdid soluvchi strategik xavf sifatida e'tirof etilmoqda.

KORRUPSIYAGA QARSHI

MUROSASIZ SIYOSAT — MUDOFAA SALOHİYATI

va davlat xavfsizligining huquqiy kafolati



O'zbekistonda keyingi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu sohada qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar endi faqat huquqbuzarlik uchun jazo berishga emas, balki korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, institutsional barqarorlikni ta'minlash va davlat xizmatida halollik madaniyatini shakllantirishga qaratilmoqda.

Shu ma'noda, 2026-yil 22-iyunda qabul qilingan 1155-sonli qonun korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqqan strategik huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashishning an'anaviy nazorat modeli o'rniga preventiv boshqaruv, komplayens nazorati, shaxsiy javobgarlik, raqamli monitoring va jazo muqarrarligiga asoslangan zamonaviy huquqiy mexanizmlarni joriy etdi.

Eng muhimi, mazkur qonun korrupsiyani endi oddiy huquqbuzarlik sifatida emas, balki **davlat boshqaruvi barqarorligiga, davlat organlariga nisbatan jamoatchilik ishonchiga, davlat xavfsizligi va mudofaa tizimi samaradorligiga tahdid soluvchi tizimli xavf** sifatida baholaydi. Bu yondashuv zamonaviy davlat boshqaruvi va strategik xavfsizlik konsepsiyalariga to'liq mos keladi.

Mudofaa sohasida mazkur qonunning ahamiyati yanada yuqori. Chunki harbiy boshqaruv tizimida

qabul qilinadigan har bir qaror mamlakat mudofaa qobiliyatiga, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligiga, davlat mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishga hamda harbiy xizmatchilarning obro'-e'tiboriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi ichki nazorat **faqat moliyaviy intizom vositasi emas, balki davlat xavfsizligini ta'minlash, harbiy boshqaruv samaradorligini oshirish va mudofaa salohiyatini mustahkamlashning strategik huquqiy instituti** hisoblanadi.

Qonun aynan shu nuqtayi nazardan harbiy boshqaruv tizimi uchun mutlaqo yangi talablarni belgiladi. Endi korrupsiyaga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki har bir rahbarning shaxsiy mas'uliyati, har bir tarkibiy bo'linmaning boshqaruv madaniyati va har bir harbiy xizmatchining kasbiy vijdoni bilan chambarchas bog'liq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Mudofaa vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining faoliyati ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Endi ular tekshiruvchi tuzilma sifatida emas, balki korrupsiya xavflarini oldindan aniqlovchi, tahlil qiluvchi, raqamli ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi va rahbariyat uchun strategik tavsiyalar ishlab chiquvchi intellektual boshqaruv instituti sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi.

Zamonaviy harbiy boshqaruvda eng qimmatli strategik resurs – bu ishonch. Davlatga ishonch mustahkam bo'lgan joyda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, Qurolli Kuchlarning salohiyati yuksaladi va davlat boshqaruvi samaradorligi ortadi. Shu ma'noda, **davlat xavfsizligining eng mustahkam huquqiy poydevori korrupsiyadan xoli, shaffof va hisobdor davlat boshqaruvi tizimidir.**

Shu nuqtayi nazardan, 1155-sonli qonun nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan navbatdagi huquqiy hujjat, balki **davlat xavfsizligini mustahkamlash, mudofaa salohiyatini oshirish, davlat xizmatining halollik standartlarini yuksaltirish va xalqning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik siyosiy-huquqiy asos** hisoblanadi.

Mayor Sherzod MURODOV,
Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat bo'limi boshlig'i o'rinbosari

Harbiy kafedra faoliyati

JANUB DARVOZASIDAGI

intellektual qalqon



Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, milliy xavfsizlik tizimini modernizatsiya qilish va yosh avlodni sohaga mutlaqo yangicha, intellektual yondashuvlar asosida jalb etish borasidagi strategik topshiriqlari ijrosini ta'minlash yo'lida Termiz davlat universiteti navbatdagi tarixiy va ulkan qadamni tashladi.

Yangi 2026/2027-o'quv yilidan boshlab, universitetda harbiy kafedra o'z faoliyatini boshlamogda. Bu voqea shunchaki lokal yangilik emas, balki butun janubiy sarhadlarimiz xavfsizlik tizimini intellektual modifikatsiya qilish yo'lidagi olamshumul ijtimoiy-siyosiy voqealardir.

Surxondaryo viloyati – nafaqat geografik xaritalarda, balki har bir o'zbekistonlikning qalbida Vatanimizning muqaddas, mag'rur va daxlsiz janubiy darvozasi hisoblanadi. Chegara hududi bo'lgan, Amudaryoning shiddatli to'lqinlari poyida joylashgan bu tabarruk tuproqda osoyishtalikni saqlash, hudud barqarorligini ta'minlash har bir yurtidoshimizning qalb amridagi muqaddas burchidir. Vohamiz qadimdan mardlik, jasorat, ilm-fan va yuksak madaniyat o'choqlari bilan dunyoga tanilgan.

Bugun voha yoshlarida yuksak g'urur hissi jo'sh urmoqda. Tasavvur qiling, talaba yoshlarimiz qo'lida oliy ta'lim diplomini ushlasa, yelkasida "leytenant" harbiy unvonini mag'rur tutadi. Bu nafaqat yoshlarning shaxsiy yutug'i, balki butun voha ahlini yuksaltiruvchi olamshumul tarixiy tantanadir.

Yangi o'quv yilidan boshlab ochilayotgan harbiy kafedra Termiz davlat universiteti talabalari uchun hayotiy strategiyalarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Yoshlar o'zlari tanlagan fuqarolik mutaxassisliklari bo'yicha chuqur fundamental bilim olish barobarida, harbiy kafedraning mukammal tizimi orqali zaxiradagi ofitser maqomini qo'lga kiritadi.

Bu qo'shaloq imkoniyat bitiruvchilarning mehnat bozorida, davlat boshqaruvi organlarida va ijtimoiy hayotda raqobatbardoshligini keskin oshiradi. Ular yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi va farovonligini ta'minlovchi intellektual qalqonlar safiga qo'shiladi.

Bugun egnimdagi harbiy libos men uchun shunchaki kiyim emas. Bu – sharaf. Chunki u mard ajdodlarimiz, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi bobolarimizning adolat, barqarorlik va yurtini ko'z qorachig'idek asrash borasidagi buyuk merosiga daxldorlikdir.

Bugungi kunda universitetda shakllangan moddiy-texnik baza va intellektual muhit yangi ochilgan harbiy kafedraning eng yuqori standartlar darajasida ishlashini to'liq kafolatlaydi. Bu yerda talabalarga saboq berish uchun respublikamizning eng tajribali, mudofaa sohasida ko'p yillik amaliy malakaga ega bo'lgan mutaxassislari, zaxiradagi ofitserlar va olimlar taklif etilgan. Akademik ta'lim erkinligi bilan harbiy intizom qoidalarining o'zaro uyg'unlashuvi Termiz davlat universitetining nufuzini mutlaqo yangi, strategik bosqichga olib chiqadi. Bu maskan endilikda nafaqat sof ilm-fan, balki milliy xavfsizligimiz uchun zamonaviy kadrlarni tayyorlaydigan innovatsion intellektual markazga aylanadi.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori

Sayyor qabul

Ijtimoiy himoya

INSON QADRI UCHUN

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda olis hududlarda o'tkazib kelinayotgan ommaviy sayyor qabullar davom etmoqda.

Bu galgi sayyor qabullar Namangan viloyatining Pop, Andijon viloyatining Jalaquduq va Farg'ona viloyatining So'x tumanlarida tashkil etildi.

Ularda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar qatnashdi. Dastlab "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida uchrashuvlar o'tkazildi. Ochiq muloqotlarda Yangi O'zbekiston sharoitida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning hayotiy ifodasi, shu jumladan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so'z yuritildi.

So'ngra soha mutaxassisleri qatnashuvida har bir murojaat tinglanib, ko'tarilgan masalalarni shu yerning o'zida ijobiy hal etish choralari ko'rildi. Jarayonda huquqiy maslahatlar berilib, ko'rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar esa alohida nazoratga olindi.

Ushbu sayyor qabullar "Inson qadri uchun" ezgu tamoyili asosida aholi murojaatlarini o'z joyida hal etish, fuqarolarni o'ylantirib kelayotgan muammolarga tezkor yechim topish borasida olib borilayotgan tadbirlarning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

**Adliya polkovnigi
Ilhom SALOMOV,
Farg'ona harbiy prokurori**

Oliy Majlis Senati a'zolari Q. Burxanov va G. Marufova hamda Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov tomonidan poytaxtimizning Bektemir tumanida xavfsiz muhitni shakllantirish, jinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi.

ISHCHI GURUH *o'rganishlari*

Xususan, Chashma va Iyk ota mahallalarida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish va aholi xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy ijrosi tahlil qilindi.

Shuningdek aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan manzilli ishlash hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini samarali tashkil etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holatiga alohida e'tibor qaratildi.

O'rganishlar yakunida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, profilaktik ishlar samaradorligini yanada oshirish hamda belgilangan vazifalarning so'zsiz ijrosini ta'minlash yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

**Adliya polkovnigi Bahrom JALOLXO'JAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokuraturasi bo'lim boshlig'i**

Reklama

O'QUV KURSLARIMIZGA MARHAMAT!

"Avto mohir" mas'uliyati cheklangan jamiyati jamoasi barcha yoshlarni avtomobil boshqarishning "B", "BC", "CE" toifali o'quv kurslariga taklif qiladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, yaqinda bugungi kun talablari asosida barpo etilib, tinglovchilar ixtiyoriga topshirilgan avtodromda amaliy mashg'ulotlar zamonaviy rusumli o'quv-mashq avtomobillarida olib borilmoqda.

AVTO MOXIR

"B"



"BC"



"CE"



Xizmatlar litsenziyalangan.



Keles shahri, "Huvaydo"
MFY, Keles yo'li ko'chasi, 63-uy.



95 081-01-65



Malakali o'qituvchilar



Zamonaviy o'quv avtomobillari



Nazariya va amaliyot uyg'unligi



Sifatli ta'lim – ishonchli kelajak!

Tabarruk qo'shiq

VATANGA MEHR

ona allasidan boshlanadi

Inson qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat tuyg'usi qanday shakllanadi? Ko'plar buni "tug'ma" yoki "o'rgatilgan" deb tushunadi. Yo'q, bu tuyg'u asosan tarbiya va ta'limning mevasi bo'ladi. Albatta, tarbiyaning ilk manbai ona mehri va uning allasidir. Vatanga sadoqat missiyasi esa hech mubolag'asiz, ONA ALLASidan boshlanadi, desak, yuz karra haq bo'lamiz.

Anglaganingizdek, bugun sizlarga bayon etmoqchi bo'lgan mavzu ulug' va qudratli, farzand ruhiyatni uyg'otuvchi, tarbiyalovchi, dunyo haqida ilk tuyg'ularni his qilishga undovchi, ohangi va so'zi tabarruk qo'shiq – alla haqida.

*Oy suzar misli kema,
Yulduzlar jimir-jimir.
Avliyolar madadkor,
Toleyingdan g'am yema.
Alla bolam, alla-yo,
Jonim bolam, alla-yo.*

"Ona allasi bola qalbiga ezgulik va mehr urug'ini sochadigan birinchi tarbiyadir", deydi mutafakkir shoir Alisher Navoiy. Darhaqiqat, inson hayotidagi birinchi musiqa va tafakkur ozuqasi – bu ona aytgan alla. Bola ona qo'lida ulg'ayib, uning ovozi, mehri va duolari bilan kamol topadi. Allada aytilgan ezgu tilaklar, orzu-umidlar bola qalbiga singib, uning ma'naviy dunyosiga asos soladi.

*Ulg'ay, bolam, gul Vatanda, alla,
Botir bo'lib o'sg'il, qo'zim, alla.
Alpomishdek kelbatingdan, alla,
Yovlar qo'rqsin savlatingdan, alla.
Alla bolam, alla-yo, alla-yo, alla.*

Onaning ilk allasi bolaning orom olishga, uxlashga va katta bo'lishga chaqiruv bilan boshlanadi. Vaqt o'tishi bilan u bolaning hayot haqidagi tushunchalari va qarashlariga hamroh bo'ladi. Bola avval onasini va oila a'zolarini sevishni o'rganadi, keyinchalik mahallasini va butun Vatanini qadrlaydi. Shuning uchun ona bergan tarbiya – Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqatning ilk poydevori hisoblanadi. Agar farzand bolaligidan mehr-oqibat, hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalansa, u katta bo'lganida, o'z yurtiga xizmat qiladigan, uning taraqqiyoti va rivojlanishi uchun hissa qo'shadigan shaxs bo'lib yetishadi.

*Oy oqshom uyg'onadi, alla-yo, alla,
Yulduzlar to'lg'onadi, alla-yo, alla.
Bo'yi-bastingga qarab, alla-yo, alla,
Ko'zlarim quvonadi, alla-yo, alla.
Ulug'larning zotisan, alla-yo, alla,
Buyuklar avlodisan, alla-yo, alla.*

Tarixga nazar tashlasak, Vatan ravnaqi yo'lida jonfido qilgan ko'plab buyuk insonlar bor. Ularning har biri, avvalo ona tarbiyasini olgan, ona mehri bilan ulg'aygan. Ona farzandiga nafaqat hayot beradi, balki uning qalbiga insoniylik, vatanparvarlik va sadoqat urug'ini ham qadaydi.

*Alpomish-u Temur bobong,
Bobomlardek ulug' bo'lg'in.
Sen ham katta bo'lib, o'g'lon,
Yurtboshimdek buyuk bo'lg'in.
Alla bolam, alla-yo, alla-yo.*

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Bu yo'lda oila, ayniqsa ona rolini hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. Zero ona tarbiyasida ulg'aygan farzandlar esa yurtiga sadoqatli, xalqining kelajagi uchun qayg'uradigan komil insonlar bo'lib yetishadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin Vohidov bejiz "Ona allasida millat ruhi va mehr-muhabbat mujassam", deya alohida ta'kidlamagan edi.

*Onaman-u onaman, alla,
Bolam uchun yonaman, alla.
Bolam tinchlikda o'ssa, alla,
Orzularga qonaman, alla.*

Ha, "alla" qo'shiqlari faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh, Vatan tuyg'usi, imyon va ezgulik ona istaklari bo'lib, farzand ongiga singdirib boriladi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jism-u jonida kurtak bo'lib ochilib boraveradi. Ona allasi va qalb ohangi inson bolasining ma'naviyatini uyg'otuvchi, ong olamini oziqlantiruvchi ekanini ajdodlarimiz ming yillar avval anglab yetgan. "Alpomish" dostonida Barchinoy o'g'li Yodgorga aytgan allasi fikrimizning dalilidir.

*Nomus bilan orimsan,
Manglayimda borimsan.
Qushday erkin uchar bo'l,
Doim baxtni quchar bo'l.
Dushman qonin ichar bo'l,
Alla bolam, alla-yo.*

Abu Ali ibn Sino allaning xususiyati haqida shunday degan edi: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi".

*Beshikdagi bek bolam, alla-yo,
Polvonim o'zingsan, alla-yo.
Yuragim porasi sen, alla-yo,
Elimning sarasi sen, alla-yo.*



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Farzand uchun o'z onasidan mehribon zot yo'q. Demak, uning allasidan, uning ohangidan-da, yoqimli kuy-qo'shiq ham bo'lishi mumkin emas. Biroq globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida yosh onalar milliy qadriyatlar, jumladan alla aytish an'analarini unutib, virtual olamning allasiga o'z farzandlarini bog'lab qo'yimoqda. Telefondan, televizor va tayyor audio qo'shiqlar tufayli onalar farzandlarini o'zi alla aytib emas, tayyor musiqa bilan uxlatishga harakat qilishadi. Ko'pchilik onalar ish bilan band. Shu sababli bola bilan muloqot qilishga kamroq vaqt ajratadi. Bu esa ona-bola o'rtasidagi o'ziga xos hislarni, ya'ni mehr-oqibat, hurmat, izzat, e'zozlash, qadr-qimmat kabi tuyg'ularni so'ndirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda bugun yoshlarimizning xatti-harakatidagi o'zgarishlar, mehr-oqibat yo'qolib borayotgani, ularning tajovuzkorligi, o'z yaqinlariga bo'lgan munosabatlar haqida ko'plab salbiy fikrlar bildirilmoqda. Hatto ota-onaga bo'lgan hurmatsizlik, yakka hukmronlik, g'arblashuv ko'payganiga birdek guvohmiz. Bunga aybdor etib ko'proq yoshlarni ko'rsatamiz.

Hurmatli onalar! Farzandingizga alla aytib beryapsizmi? Yoki aytishni xohlamaysizmi? Sizning onangiz alla aytib katta qilganini bir eslang. Onam meni alla aytib katta qilgan, deb quvonib ketasiz. Sizning farzandlaringiz ham shunday mehrga va muhabbatga muhtoj ekanini unutmang. Ularga alla aytib bering. Qalb mehringizni kuyga solib, alla aytib. Bilsangiz, kuylay olsangiz, tole yor bo'lsin, mabodo bilmasangiz, uni o'rganishga astoydil harakat qiling, aziz onalar. Bu siz yaratayotgan kelajak uchun juda muhimdir.

Fotima ISLOM QIZI,
Mudofaa vazirligi
Ma'naviyat va madaniyat
departamenti yetakchi
mutaxassisi, jurnalist



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6156

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 947 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH" YaTT mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH"

YaTT bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz

vatanparvar-bt@gmail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya